

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika fakulteti

5111700-boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish
yo'nalishi, BT-46-15-guruh bitiruvchisi

**UMIRZAQOVA (ALIJANOVA) SURAYYO SHAVKATJON
QIZINING**

**“4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif
berishga o'rgatish” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Himoyaga tavsiya etildi”
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası
mudiri v.b. _____ f.f.n., dotsent
M.Hamidova
«__» _____ 2019- yil

BMI rahbari: _____
BTM kafedrası dotsenti, f.f.n.
M.O.Hamidova
“ _____ ” _____ 2019-yil

Mavzu: 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish

Reja:

Kirish

1- bob. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning nazariy asoslari.

1.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish haqida umumiy ma'lumot

1.2. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning ahamiyati

2- bob. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish usullari

2.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari va ularni tashkil etish

2.2. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari tahlili

2.3. Tajriba-sinov ishi va natijalarining tahlili.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi.“Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko’lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquqlari va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik muhitini ta`minlash uchun muhim poydevor bo’ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.¹

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta`lim sohasida ham bir qator o`zgarishlar qilinishini taqozo etmoqda. Hozirgi kunda ta`lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta`limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o`quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo`llash, ularda amaliy ko`nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o`tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina yurtimiz kelajagi bo`lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo`yilgan o`azifa oqilona hal etilishi mumkin.

“Biz ta`lim va tarbiya tizimining barcha bo`g`inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o`zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”², deb O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali yig`ilishida qilgan ma`ruzalarida ta`lim va tarbiya tizimi masalasiga keng e`tiborni qaratib o`tgan edi. Bu fikrdan ham ko`rinib turibdiki, ta`lim va tarbiyaning yosh avlod hayotidagi roli hamda ahamiyati katta. Shuning uchun ham 2017-yil 20-aprel kuni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori qabul qilindi. Ma`lumki, 2013-yil 6-dekabr kuni O`zbekiston

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida.-T.: Adolat, 2017. B.3.

² Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, 2016-yil.-8-dekabr.

Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham boshlang'ich sinflarga ta'lim-tarbiya beruvchi pedagoglarni to'liq oliy ma'lumotli bo'lishi kerakligi xususida to'xtalib, "Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski, yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish asosan o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi. Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmoqda", deb ta'kidlab o'tganlaridek bugungi kunda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizning "Davlat tili" haqidagi Qonuni, "Ta'lim to'grisida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror va boshqa hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Bu biz keng tatbiq qilib o'rganayotgan bitiruv malakaviy ishimizga ham taalluqlidir, desak yanglishmaymiz.

"2019-yil-Faol investitsiya va ijtimoiy rivojlanish yili" deb nomlanishi, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi, ushbu Harakatlar strategiyasining to'rtinchi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" nomli to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ham bugungi kunda yoshlar ta'lim-tarbiyasi masalasiga keng e'tibor qaratilgan. Jumladan: "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsilash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy

ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi”¹.

Darhaqiqat, “Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi”².

2017-yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot ilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishlari e'lon qilinganligi, ushbu farmoyishda ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratilganligi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etib kelinayotganligi, Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatayotganligi, umuman, ushbu farmoyishda ko'rsatilganidek ishchi guruhlar ikki oy muddatda mutasaddi vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, matbuot va axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi yagona davlat siyosatini yurituvchi vakolatli davlat organini belgilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmini rivojlantirishni inobatga olgan holda, tegishli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kirishishganligi, hattoki, tajriba-sinov ishini olib borish jarayonida o'tkazilgan bu boradagi tadbirlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga yaqinda yordam beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.- Toshkent: Adolat, 2017.- B.34-35.

² Karimov I.A. Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: Ma'naviyat, 2006.-112 b.

Shularga e'tibor berilgan holda "4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish" mavzusini bitiruv malakaviy ishimizga asos qilib oldik. Mavzuni bugungi kun talablari asosida yoritish hozirgi kunimizning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish yo'llarini tahlil etishni asosiy maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

-4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish yo'llari haqida tushuncha berish;

- mazkur ishni yangi pedagogik texnologiya asosida yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning mazmuni, shakli va usullari.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning milliy g'oya va mafkuraga, ta'lim samaradorligini oshirishga doir ma'ruzalari, asarlari, farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Vazirlar Mahkamasining ta'lim to'grisidagi me'yoriy hujjatlari bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishiga yangicha yondashuvlar va erishilgan natijalar. Bitiruv malakaviy ishimizda 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish yo'llari ustida izlanish olib borildi va mazkur mavzuning o'ziga xos xususiyatlari yangicha mezonlar asosida ilk bor maxsus tekshirildi. To'g'ri, boshlang'ich sinflarda va yuqori sinflarda o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish bo'yicha ishlar ham

mavjud. Bu xususida ishimizning boshlarida ham to`xtalib o`tganmiz. Lekin biz ushbu ishlardan farqli tarzda aynan 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o`rgatish yo`llari masalasiga e`tiborni qaratgan holda ish olib bordik. Shu bilan birga, DTS talbalaridan kelib chiqib, xolis tadqiq etishga harakat qildik.

Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy ilmiy yangiligi mavzuning bugungi kunda shakllanayotgan yangicha qarashlarga asoslanganligi bilan izohlanadi.

Xullas, ishimizda o`z oldimizga qanday maqsadni qo`ygan bo`lsak,, ko`zlangan natijaga erisha oldik.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning nazariy ahamiyati shundaki, u 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o`rgatish yo`llari haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritadi. Bitiruv malakaviy ishimizdagi kuzatish va qarashlarimiz mavjud fikrlar asosida boyitilib, ishning nazariy qimmatini oshirishni ko`zda tutadi.

Boshlang`ich ta`lim uslubshunosligida mazkur muammo maxsus o`rganilmaganligi, bugungi kunda bu masalaning muhim tomonini hisobga olgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikr va xulosalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizning material va xulosalaridan 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o`rgatish jarayonida unumli foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I- bob.

4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning nazariy asoslari

1.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish haqida haqida umumiy ma'lumot

O'qish darslarining muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish, ularning shaxsini tarkib toptirishdan iboratdir. Bu vazifani bajarishda darsda o'rganiladigan badiiy asarlar, ularning g'oyasi, undagi obrazlar muhim ahamiyatga ega. Chunki badiiy asar, undagi obrazlar orqali kishilarning hayotiy tajribalari, tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar nafis so'zlar bilan san'atkorona yoritilgan bo'ladi. Ana shu hayotiy voqealar tasvirini o'quvchilarga to'laqonli yetkazish, asardagi obrazlar va voqelikka yozuvchi qarashlarini tushuntirish orqali tarbiyaviy maqsadlar amalga oshadi.

O'qish darslarida o'tkaziladigan badiiy asar tahlili ana shu maqsadlarga erishish uchun yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy tahliliga e'tibor kuchaytirilganligining boisi ham shunda. Lekin maktablar tajribasida bu masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Boshlang'ich sinflarda ishlayotgan ayrim o'qituvchilar badiiy asar tahlili deganda asar matni so'ngida berilgan savollar asosida suhbat o'tkazishnigina tushunadilar.

To'rt yillik boshlang'ich ta'lim dasturi asosida olib borilgan darslardan birini kuzatish jarayonidagi quyidagi holat ham fikrimizni oydinlashtirishi mumkin.

Darsda "O'qish kitobi"ga kiritilgan T.Ilhomovning "Rasmni kim chizgan edi?" sarlavhali kichik hikoyasi o'rganiladi. O'qituvchi hikoya sarlavhasi va uning muallifini doskaga yozib qo'ydi. Uni shoshilmay o'qib berganidan keyin mazmunini qisqacha gapirib ham berdi:

- O'qituvchi o'quvchilarga toychoq rasmini chizib kelishni vazifa qilib bergandi. Doniyor uyida urinib ko'rdi-yu, toychoq rasmini chizolmadi. Dadasiga chizdirib kelib ko'rsatdi. O'rtoqlari va o'qituvchi uni ko'rib ma'qullashdi. Lekin Doniyor toychoq rasmini doskada chizolmadi.

- Toychoqni dadam chizgan edilar,-deb yig'lab yubordi.

Shundan keyin hikoyani o'quvchilarga oz-ozdan o'qitib chiqdi. So'ng uning ostida berilgan quyidagi savollarga o'quvchilarning javobi eshitildi.

- Bolalar qanday topshiriq berilgan edi?

-Bolalarga toychoq rasmini chizib kelish uyga vazifa qilib berilgan edi.

- Doniyor sinfda o'rtoqlariga nima deb maqtandi?

Doniyor o'rtoqlariga "Mana, men chizgan toychoqni ko'ringlar" deb maqtandi.

- Doniyor nega hijolat bo'ldi? Uning o'rnida bo'lganingizda siz nima qilardingiz?

- Doniyorni o'qituvchi doskaga chiqarib toychoq rasmini chizishni aytganda, chizolmay hijolat bo'ldi. Men esa hech qachon uyga berilgan vazifani dadamlarga chizdirmayman.

Ko'rinib turibdiki, bu darsda avvalo, o'quvchilar hayajonlangani yo'q. Yozuvchining maqsadi, asar g'oyasi va tili haqida fikr yuritilmadi. Natijada o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirish ishlari ham asar g'oyasi asosida tarbiyaviy ta'sir etish ham talab darajasida bo'lmadi.

Darslarda hikoya, ertak yoki asarning boshqa turi o'rganiladigan bo'lsa, uni o'quvchilarga o'qitib, mazmuni yuzasidan savol-javoblar o'tkazib va ayrim o'quvchilarga tushunchalarini gapirtirish bilangina ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. O'qish darsmlarida o'rganiladigan badiiy asardagi har bir obrazning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni uning tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari va ichki kechinmalarini ocha bilish kerak. Har bir obrazning boshqalaridan ajralib turadigan tomonlarini ko'rsatish muhimdir.

Asardagi ayrim personajlar haqida quvnoq, mehnatchevar, rostgo'y, chaqqon deb baholab kifoyalanish yaramaydi. Bunday qilinsa, o'quvchilar tasavvurida to'laqonli obraz gavdalanmaydi.

Badiiy asar ustida shunday ishlash kerakki, o'quvchilar ongida obrazlar to'laqonli va mukammal o'z ifodasini topgan. Har bir obraz qanchalik yorqin ifodalansa, tasavvur va tushunchalari shuncha kengayadi.

Badiiy obrazlar til yordamida, tilning tasviriy ifoda vositalari asosida yaratiladi. Shuning uchun asarni tahlil qilishda uning til xususiyatlarini ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Lekin bunda asardagi ayrim so'zlar haqida fikr yuritish yetarli emas. Asar tili haqida umumiy fikr yuritiladi. O'quvchi va tinglovchilar tomonidan asarni to'laqonli o'zlashtirilishi fikrlash va ijodiy ishlarni qay darajada uyushtirilishiga bog'liq. O'quvchi asarda fikr yuritilayotgan obrazni o'z ongida gavdalandira olishi, buning uchun esa qayta hikoyalashdan ustalik bilan foydalana bilish kerak. Chunki asar mazmuni undagi obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar yozuvchining o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish vositasidir. Obrazlarsiz asar g'oyasi, yozuvchi fikrlarini tushunib bo'lmaydi.

O'qish darslarida o'rganiladigan asar turini ham hisobga olish kerak. Nasriy asarlarni tahlil qilishda qayta hikoyalash va reja tuzishdan foydalaniladi. Lirik asar tahlilida esa ifodali o'qish va savol-javoblarga keng o'rin beriladi. Nasriy asarning ham turlariga qarab ish olib boriladi. Agar asar bayon tarzida berilgan bo'lsa, to'liq hikoya qilish va og'zaki tasvirga e'tibor beriladi. Asarda dialoglar ko'p bo'lsa, tanlab hikoya qilish va rollarga bo'linib o'qish yaxshi natija beradi. Agar asar badiiy va ilmiy-ommabop maqolaga o'xshash bo'lsa, ularning xususiyatlariga qarab har ikki ish turi oralig'ida tahlil qilinadi.

Har qanday badiiy asar mazmuni ma'lum darajada mantiqiy jihatdan bog'langan bo'ladi. Asarning har bir qismi boshqa qismi bilan bog'lanadi. Agar o'quvchilar ana shu bog'lanishni to'g'ri anglasalar, uning mazmunini tushunishga qiynalmaydilar.

Asardagi mantiqiy bog'lanish va fikr izchilligini o'quvchilar qanday his etishlari tekshirib ko'rilgan. Shu maqsad bilan mantiqiy bog'lanishi buzilgan

gaplar berilgan. O'quvchilar gaplarni o'qib mazmun izchilligiga e'tibor bermaganlar. Voqealarning sodir bo'lishidagi ketma-ketlikka e'tibor bermay o'qiyverganlar. Boshqa bir guruh o'quvchilar ana shu kamchilikni aytib, mazmunini aytishda uni to'g'rilab ketish aytilgan. Buning uchun o'quvchi gapirish rejasini tuzib olishi tushuntirilgan. 1-2-sinf o'quvchilariga tuzilgan reja asosida gapirish aytilsa, baribir yozilgani bo'yicha gapirganlar.

Tajribalar ko'rsatishicha asar mantiqiy izchillikda tuzilmagan bo'lsa, uni o'zgartirib mazmunini gapirishni o'rgatishda quyidagi masalalarga e'tibor berish yaxshi natija berishi aniqlangan:

- asar matni qismlarga bo'lib doskaga yozib qo'yiladi yoki alohida qog'ozlarga yozib o'quvchilarga tarqatiladi. Ularga mazmuniga ko'ra tartib bilan joylashtirish aytiladi.

3-4-sinf o'quvchilariga bir-birigayaqin ma'noli 2-3 ta hikoyani beib, ana shu hikoyalar asosida o'zlari yangi hikoya tuzishlari aytiladi.

Bunday topshiriqlarni bajarishda qiynalgan o'quvchilarga amaliy yordam beriladi. Natijada ular mantiqiylikni tushuna boshlaydilar.

Badiiy asar tahlilida uning mazmuni asosida o'quvchilarni hayajonlantirish, fikrlashga undash, obrazlar mazmunini hayotga bog'lash o'quvchilarning o'z hayotlariga solishtirib ko'rish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Badiiy asar o'qiladigan darsdagi kirish mashg'ulotida asar mazmuniga mos bo'lgan g'oyalar ustida fikr yuritiladi. Bu o'rinda o'qituvchining gaplari obrazli va jarangdor bo'lishi kerakki, bolalar tinglab hayajonlansinlar. Masalan, she'r o'qiladigan darsda bu she'r mazmuniga yaqinroq musiqa, ashula eshittirish mumkin. Eshitgan kuylarini o'quvchilar mustaqil mulohaza qilishlari, shu asosda o'tkaziladigan suhbat va o'qituvchining izohlab berishi o'quvchilar didini o'stiradi, she'rni o'qishga qiziqishlarini oshiradi.

Kirish mashg'ulotlarini ba'zi o'rinlarda sayohat tarzida, kinofilm yoki turli suratlar ko'rsatish, ayrim narsalarning o'zini namoyish qilish orqali o'tkazish ham qiziqarlidir. Har qanday holatda ham kirish mashg'ulotlari mavzuga, o'rganiladigan asar g'oyasiga mos bo'lishi kerak.

Kirish mashg'ulotidan keyingi ifodali o'qish muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda o'qituvchi puxta tayyorgarlik bilan o'quvchilarga ta'sirli qilib o'qib berishi kerak. Darsning keyingi bosqichlarida ham ifodali o'qishga alohida e'tibor beriladi. Lekin birinchi marta o'qituvchining ifodali qilib o'qishi alohida ahamiyatga ega. U o'quvchilarning asarni to'laqonli his etishlariga yordam beradi, asardagi obrazlar obrazlar dunyosiga olib kiradi. Birinchi marta asarning hammasi o'qiladi. Agar asar katta bo'lsa, ifodali o'qish uchun muhim qismlari ajratib olinadi. Agar magnitafonga yozib olingan ifodali o'qish namunasini eshitilsa yanada qiziqarlidir. O'qituvchining o'zi ifodali o'qishga tayyorlanishda ovoz bilan o'qib mashq qilishi, kitob sahifalariga o'ziga tushunarli bo'lgan ayrim belgilar qo'yib, ifodali o'qishga moslashtirib olishi ham mumkin.

Ayrim hollarda asarni birinchi marta o'qish uchun o'quvchilardan birini tayyorlash ham mumkin. Buning uchun o'quvchi bilan maxsus tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Tayyorgarlik davomida o'quvchiga ifodali o'qish shartlari tushuntiriladi. Tinish belgilari, so'z va gap urg'ulariga e'tibor berish kerakligi aytiladi. Lozim bo'lsa qalam bilan tegishli belgilar chizib ko'rsatiladi. O'qituvchining o'zi o'qib ayrim namunalarni ko'rsatadi. So'ng o'quvchiga o'qitib eshitadi. Ana shunday tayyorgarlikdan keyin darsdagi birinchi o'qishni o'sha tayyorlangan o'quvchiga tavsiya etish mumkin.

Asarni o'qituvchi yoki maxsus tayyorlangan o'quvchi ifodali o'qib ko'rsatmay, ayrim hollarda ichlarida o'qishlarini tavsiya etish ham mumkin. Bunda o'quvchilarga "Hikoyani ovoz chiqarmay o'qing va unda asosan nimalar haqida fikr yuritilganligiga e'tibor bering", "Yozuvchi bu hikoyada nima demoqchi ekanligiga e'tibor bering" singari topshiriqlar beriladi. Ana shunday topshiriq berilmasa, o'quvchilar e'tiborsizlik bilan o'qishlari mumkin.

Biror asarni o'qiganingizdan keyin xotirangizda unda tasvir etilgan voqealar alohida-alohida tarzda emas, balki qahramonlarning sarguzashtlari, kechinmalari tarzida, bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda qayta jonlanadi. Ba'zan yillar o'tsa-da, qahramonlar taqdiridagi favqulodda o'zgarishlar xayolingizdan o'chmaydi. Shuning uchun har qanday asar tahlili undagi qahramonlar tavsifi

atrofida kechadi. Hatto kichik bir she`r haqida so`z yuritilganda ham undagi lirik qahramon kechinmalari tilga olinadi. SHoir o`z hissiyotini lirik qahramon kechinmalari shaklida ifodalashi, u orqali hayotga munosabat bildirishi misollar bilan asoslanadi.

“Odatda, hayotni badiiy obrazli aks ettirishning ikki muhim xususiyatini tilga oladilar,-deb yozadi professor Nuriddin SHukurov.- Birinchisi shuki, obraz-hayot hodisalarining, odamlar xarakterlarining muhim xususiyatlarini umumlashtiradi. Ikkinchisi shuki, obraz hayot hodisalari va odamlarni xuddi hayotda ko`rganimizday jonli, aniq aks ettiradi. Boshqacha aytganimizda, obraz hayotning yakka shaklda umumlashgan tasviridir. Har qanday chinakam badiiy asarda obraz umumlashgan va yakka tarzda ko`rinadi”.¹

Badiiy timsol (obraz)ning yakka, ayni paytda, umumlashgan shaklda bo`lishi, san`atning barcha turlariga tegishlidir. Qahramon siymosi ming-minglab, balki millionlab kishilarga xos xususiyatlarning umumlashtirilishi, shu bilan birga, muayyan shaxs sifatida berilishi uning hayotiyiligini ta`min etadi. “Estetika tarixi. Jahon estetik tafakkuri yodgorliklari” kitobidan olingan quyidagi parcha buning yorqin dalilidir: “Haykaltarosh Skopas Marmardan Vakx qizini yaratdi, qiz jonli ko`rinardi, tosh toshligicha qolgani holda go`yo jonsiz tabiat qonunlarini buzganday edi. O`z tabiatiga ko`ra qattiq bo`lgan tosh ayol nafisligiga taqlid qilib, go`yo o`zi ham nafis bo`lib qolganday, ayollik tabiatiga ko`ra sekin, nozik harakatlar qilayotgan ayol qiyofasiga kirgan edi. Tabiatan harakatdan mahrum bo`lgan tosh san`atkor qo`lining sehri, qudrati bilan Vakx qizlari raqsida charx urib aylanayotganday edi. Garchi ehtiros toshga xos bo`lmasa ham, Vakx qizining yuzida es-hushidan ayrilgan ayol shavqi ravshan sezilardi. Uning sochlarini shabada yulqilar, toshning o`zi ham nozik va mayin, durkin soch tolalariga aylangan edi. Bu holni tushunishga, tasavvur etishga aql bovar qilmas edi, tosh bo`la turib, bu marmar obrazda ayolning bor mayinligi, nafisligi ko`rinardi”.²

Yozuvchi qahramon tismolini turli jihatdan yoritadi. Lekin biror o`rinda qahramonlar xatti-harakatining buni, unisi yomon degan fikr bildirmaydi. Hatto

¹ Matjon Safo. Kitob o`qishni bilasizmi?-Toshkent: O`qituvchi, 2001.-B.76.

² Matjon Safo. Kitob o`qishni bilasizmi?-Toshkent: O`qituvchi, 2001.-B.77.

eng og'ir jinoyatga qo'l urayotganini tasvirlaganda ham qahramonining qilmishini qoralab so'kishga haqqi yo'q. Aks holda bunday qahramon hayotiylikdan mahrum qo'g'irchoqqa aylanib aylanib qoladi va unga hech kim ishonmaydi.

Masalan, "O'tgan kunlar" dagi Homid, "Mehrobdan chayon"dagi Abdurahmonlarga iflos qilmishlari uchun har qancha nafrat bildirsa kamlik qiladi. Ammo Abdulla Qodiriy asarlarining hech qaysi o'rnida ular haqida o'z tilidan biror og'iz yomon so'z aytmaydi. Aksincha, har ikkala qahramonning razilligini xolis kuzatuvchi sifatida tasvirlaydi. Ammo asar voqealaridan kelib chiqadigan mantiq ularning pastkashligini baholashni taqozo qilar edi. Yozuvchi bu "vazifa"ni boshqa qahramonlarga-ularning raqiblari Otabek va Anvarlarga yuklaydi.

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" romanida Abdurahmon domlaning razilligini fosh etishda -tegishli bahosini berishda ham "O'tgan kunlar"dagi kabi qaltis vaziyat yaratadi.

Kitobxonga yaxshi ayonki, Anvar Abdurahmon domlaning shum niyatlari boisidan o'limga mahkum qilinadi. Jallod kundasiga boshini qo'yar ekan, uning uchun hayotning zarracha ma'nisi qolmagan edi.

Ko'rinadiki, yozuvchi Abdurahmonning yaramas qilmishlari misolidadagi ifloslikka baho berish uchun ham nihoyatda keskin vaziyatni tanlagan.

Yuqorida keltirilgani kabi qahramonlar fe'l-atvoridagi yaxshi va yomon sifatlar ularning ijobiy va salbiy qahramonlar deb baholanishiga sabab bo'lgan.

"Anvar... aqlli va hushyor, bilimli va hozirjavob, rahmdil va iste'dodli bola ekanligi bilan boshqalarning e'tiborini jalb etadi, - deyiladi.

Shu xildagi tavsiflar darsliklarda boshqa asarlarning qahramonlari haqida ham ko'plab keltiriladi. O'rta va oliy ta'limda adabiy qahramonlarni xuddi shunday yaxshi-yomonga ajratib o'rganish an'anaga aylanib qolgan. O'rta maktablarda yoziladigan insholarning sarlavhasidan tortib, rejasi-yu mazmunigacha to'la o'z aksini topadi: Yo'lchi-yaxshi, Mirzakarimboy-yomon. Saida-yaxshi, Qalandarov-yomon va hokazo.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qish darslarida berilgan bosh qahramon qanday bo'lishi kerak? Uning tarbiya vositasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari

nimalardan iborat? Bu masala garchi ko'plab tadqiqotlarning markazidan o'ringan bo'lsa-da, hanuzgacha yakunlangan emas.

Yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar bosh qahramonlar xarakter xususiyati qanday bo'lishi lozim degan savolga turlicha munosabatda bo'ldilar, turlicha talqin qildilar. Lekin barcha qarashlar bir nuqtada birlashadi. Ya'ni ijtimoiy hayotdagi yetakchi, ilg'or g'oyalarni tashuvchi, turmushning oldingi marralarida boruvchi ma'naviy qiyofasi butun murakkabligi bilan aks ettirilgan qahramonlar ko'proq ta'sir kuchiga ega bo'lishi, tarbiyaviy jihatdan kelajak davr uchun ham xizmat qilaverishi ularning barchasida birdek ta'kidlanadi. Bunday qahramonlar qaysi davr farzandi sifatida tasvirlanmasin, ko'rkam fazilatlari tufayli kitobxonni o'ziga maftun etadi. Binobarin, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod va Shirin, Lev Tolstoyning "Kavkaz asiri" asaridagi Jilin obrazlari o'z davri kitobxonlarini qay darajada hayajonga solgan bo'lsa, hozir ham shunchalik joziba kuchiga ega. Bu gapni G'.G'ulomning "Shum bola" qissasi qahramoni SHum bola, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romanidagi Hoshimjon, Nosir Fozilovning "Saraton" qissasidagi To'ra va Kamola obrazlari haqida ham bemalol aytish mumkin.

Bosh qahramon atrofidagi munozaralar ishtirokchilaridan Pirmat Shermuhamedov quyidagilarni yozadi: "O'quvchiga uquvsiz kosib qo'li bilan asarga yelimlab yopishtirilgan o'gitlar emas, balki yosh zamondoshlarimizning butun to'laqonligi va murakkabligi bilan ko'rsatib berilgan, boy ichki dunyosi, qarama-qarshiliklari bilan ifodalangan axloqiy izlanishlari shaxsning qahramonona xatti-harakatlari va kechinmalari kerak".¹

Bu borada adabiyotshunos olim To'xtamurod Boboyev ilgari surgan fikr diqqatga sazovor: "Yetuk qahramon qiyofasida o'z davri bilangina izohlanadigan o'tkinchi belgilar ham, kelajak uchun xarakterli bo'lgan xislatlar ham mujassamlashadi. Mana, shu kelajak belgilari qahramonni umrboqiy qiladi, uni kelajak kitobxonlarining ham zamondoshiga aylantiradi".²

¹ Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi?-Toshkent: O'qituvchi, 2001.-B.80.

² Ko'rsatilgan manba.- B. 80.

E`tibor berilsa, olimlarning yetuk qahramon qiyofasida davrga xos xususiyatlarning aks etishi, shu bilan birga, kelajak belgilarini ham unutmazlik lozimligini qattiq turib himoya qilishlari seziladi. Darhaqiqat, yozuvchi real hayotiy zamiga tayanib, qahramon faoliyatida hali yuzaga chiqmagan, ammo taraqqiyot yo`nalishiga qrab, kelajakda albatta ro`yobga chiqishi mumkin bo`lgan yangicha insoniy munosabatlarni ham ifodalashi zarur. Chunki adabiyotning vazifasi mavjud voqelikni tasvirlash bilakngina cheklanmaydi.

Kitobxonda xayrixohlik, zavq-shavq uyg`otadigan, unga o`rnak bo`ladigan qahramonlarning asosiy xususiyati yuksak insoniy g`oyalar tashishidir. Mashhur frantsuz yozuvchisi Jyul Vernning “O`n besh yoshli kapitan” romanini o`qir ekansiz, asar qahramoni Dik Send o`zining topqir va dovyurakligi, dengizchilarga xos matonati va bosiqqligi bilan kishini maftun etadi. Uning kema yo`lovchilarini manzilga yetkazish yo`lidagi fidoyiligi o`quvchini, shubhasiz, hayajonlantiradi. Boshqacha qilib aytganda, Dik Send obrazining ta`sir kuchi ezgulik uchun oli b borgan mardona kurashidadir.

Yozuvchi qaysi davr voqeligini aks ettirmasin-tarixiy o`tmishnimi, ilmiy-texnika inqilobi bilan aloqador hozirgi zamon yoki kelajak hayotnimi, baribir, qahramon xarakteri takomilida o`sha davrga xos xususiyatlarni umumlashtirishga harakat qiladi.

Har bir davrda muayyan davrda shart-sharoit va jamiyat taraqqiyotidan kelib chiqib, yangi muammolar tug`iladi. Qaysi asarda davrning yetakchi xususiyatlari to`g`ri aks ettirilsa, u tarbiyaviy jihatdan shu darajada katta ahamiyat kasb etadi, qahramon obrazining ta`sir kuchi oshadi.

4-sinf o`qish darslari orqali o`quvchilar quyidagi bo`limlar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo`ladilar:

“Istiqlolim – istiqbolim”, O`zbekiston –vatanim manim”, Saxovatli fasl”, Ma`naviyat – qalb quyoshi”, “Xalq og`zaki ijodi”, “Qo`shiqlar qanotida”, “Ertaklar mamlakatida”, “Adabiy ertaklar”, “Kumush qish”, “Vatanimiz o`tmishidan”, “Nima yaxshi-yu, nima yomon?”, “Hayvonot olamida”, “Zumrad bahor”,

“Yashasin tinchlik, bor bo‘lsin do‘stlik”, “Ajdodlarimiz – faxrimiz”, “Jahon bolalar adabiyoti”, “Yoz o‘tadi soz”.

Masalan, “Yashasin tinchlik, bor bo‘lsin do‘stlik” o‘zbek bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Do‘stlik” hikoyasiberilgan.

DO‘STLIK

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Abduqodir Vovaga yozayotgan xatini boshidan o‘qib chiqqan edi, o‘ziga yoqmadi: nuqul keraksiz so‘zlarni yozibdi-yu, muhimlari qolib ketibdi. Yangitdan yozmoqchi bo‘lib, «Esingdami, Vova», deb boshladi. Boshladiyu, yana yoza olmay, derazadan olmazoga tikilganicha, xayolidan o‘tgan davr kecha boshladi.

...Bir kuni kosadagi sutni to‘kib qo‘yib oyisidan qochib chiqqan edi. Ko‘chalarda bekor aylanish joniga tegdi. Keyin nima gaplar bo‘layotganini bilish uchun maktab hovlisiga kirgan edi, yangi ko‘chib kelgan rus tili o‘qituvchisining eshigi oldida loy qorib turgan malla sochli bolaga ko‘zi tushib qoldi. Abduqodir yaqinroq borib

begona bolaning kurakchasini oldi-da, ura qochdi.

– Kerak bo‘lsa, olaver, – dedi to‘satdan o‘zbekchalab Vova, – menda ko‘p.

O‘sha kuni Abduqodir Vova bilan durustgina tanishib oldi. Ma‘lum bo‘lishicha, Vovalar «Katta dovon» qishlog‘idan ko‘chib kelayotganlarida ularning yettita quyonlari o‘sha yerda qolib ketibdi. Bitta ona quyonni olib qaytishibdi. Hademay o‘qishlar ham boshlanib ketdi. Ikkovlari bir sinfda o‘qiy boshladilar. Endi ular birga dars tayyorlashar, birga o‘ynashar, bo‘sh vaqtlarida esa Vovaning quyonlariga o‘t keltirish uchun dalalarga chiqishar edi. Bir kun ikkovlari adir tomonda adashib ham qolishgan. Bu voqea 4-sinfda o‘qiyotganlarida yuz bergan edi. Ular olma keltirish uchun bog‘ga borishdi. Erta bahor, daraxtlar kurtak yoza boshlagan, hammayoqdao‘t-o‘lanlar ko‘karib, zilol suvli ariqlar bo‘yida chuchmomalar ochilgan payt... Ishlarini bitirib, endigina orqaga qaytamiz deb turganlarida, Vovaning yonginasida bir quyon bolasi sakrab, o‘ynoqlab qoldi:

– Quyon! – deya qichqirdi Vova va ortidan quvlay boshadi. Abduqodir ham yugurdi. Quyon bolasi o‘ynoqlab, oyoqlarini osmonga otib yugurar edi. Qorong‘i

tushib, ko‘z ko‘rmay qolguncha quyinni quvlashdi.

Shu payt yaqinida chiyabo‘rining chaqaloqning ingalashiga o‘xshash ovozi eshitilib, ikkovlarini ham cho‘chitib yubordi...

– Vova, – dedi Abduqodir o‘zidagi qo‘rquvni bosish uchun ataylab qattiq tovushda, – sen katta bo‘lsang quyunchi bo‘lmoqchimsan?

– Albatta, – dedi Vova tovushini undan ham baland qilib.

– Men bobomga o‘xshab bog‘bon bo‘lsam kerak, bobom: «Qarib qoldim, o‘rnimga seni qoldirmoqchiman», – deydilar.

...Bir nafasdan so‘ng xat ham tayyor bo‘lgan edi. Abduqodir pochta tomon yo‘l oldi.¹

Ushbu hikoya bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirilgach, ularga quyidagi taopshiriqlarni beriladi:

1. Abduqodir xatida Vovaga nimalar haqida yozdi?

2. Daftaringizga do‘stlik haqidagi maqollarni yozing.

Boshlang‘ich sinflarning 4-sinf o‘qish darslarida berilgan bo‘limlarda berilgan har xil janrdagi asarlar oqali o‘quvchilar ushbu asar qahramonlariga tavsif berishga o‘rgatish haqida umumiy ma‘lumotga ega bo‘ladilar.

1.2. 4-sinf o‘qish darslarida o‘quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o‘rgatishning ahamiyati

Salbiy va ijobiy sifatlar, yaxshilik va yomonlik-bular bir butun holda inson karakterini tashkil etadi. Darsda qahramon obrazi tahlil qilinayotganda ana shu xislatlar to‘liq ochilgan taqdirdagina o‘quvchilar o‘z-o‘zini va odamlarni tushunish, anglash hissi tarbiyalanadi, ular inosn shaxsining normal kamol topishi, rivoji uchun nimalar qilish, qanday xislatlarni egallash kerakligini bilib olailar. Qahramonlar karakteri tahlilida quyidagilarga e‘tibor beriladi:

¹ Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov 3. O‘qish kitobi 4-sinf: umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik- Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. – B. 170-172.

- hayotga va hayotda yuz bergan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabatiga;
- o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida olib borgan kurashiga;
- xulq-atvori va qobiliyatiga;
- kitobxonga ko'rsatgan ta'siriga, o'z davri uchun qanchalik tipikligiga.

Darsda bu masalalarga ahamiyat berish, o'quvchilardan ular haqida aniq misollar bilan so'zlab berishni talab etish obraz tahlilining mazmunli, muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlaydi.

Tahlilda qiyosiy tavsif berish usulidan ham foydalaniladi. Bu esa o'quvchilarning obraz haqida tasavvurga ega bo'lishlarida katta rol o'ynaydi.

Masalan, Hamid Olimjonning "Semurg' yoki Parizod va Bunyod" dostonidagi Bunyod obrazini malika obrazi bilan qiyoslab o'rganilsa, o'quvchilar Bunyodning xalq baxt-saodati uchun kurashganligi va kurashda jasorat ko'rsatganligi, malikaning xudbin, rahmsiz va vafosiz ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar.

Qahramon obrazini o'rganishda uning portreti tasviri muhim o'rin tutadi. Negaki, yozuvchi qahramon portreti orqali uning jismoniy sifatlari, ichki dunyosini ochadi, xarakterli belgilarni ko'rsatadi.

Tabiiyki, har bir asarda asosiy va ikkinchi darajali personajlar bo'ladi. Binobarin, tahlilda ham asosiy personajlarning portretini ochishga ahamiyat beriladi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasidagi asosiy qahramonlar Saida va Qalandarovdir. Yozuvchi Saida portretini shunday chizadi:

"Yigirma ikki yoshlardagi baland bo'yli, juda nozik qiz arzon chit bo'lsa ham, yaxshi tikilgan ko'ylagining orqa etagini g'ijim qilmaslikka tirishib, ehtiyotlik bilan kursiga o'tirdi, yo'l-yo'lakay baxmal jiletkasining biqin cho'ntagidan yarmi chiqib turgan kichkinagina bloknotini olib, stolga qo'ydi,

ingichka qalamining ketini iyagiga niqtab, Nosirovga savol nazari bilan qaradi”.¹

Bu parchada Saidaning tashqi qiyofasi sodda, ammo go’zal kiyinishi, odobliligi, tadbirkorligi tasvirlangan. Asardagi boshqa qahramonlar portreti ham esda qolarli tarzda chizilgan. Masalan, Qalandarovning xotini Huriniso “xon atlas ko’ylak” kiygan, “juda semiz, baqbaqalari osilgan, qip-qizil yuzi yaltirab turgan, aftidan yoshini belgilab bo’lmaydigan... xotin”, kolxozning dongdor brigadiri Tojixon “...barvasta, sariq burma ko’ylak ustidan bir talay orden taqilgan jigarrang kostyum kiygan qirg’iz bashara.. ayol” kabi.

Yuqoridagi misollarda Hurinisoning kishilar oldida o’zini ko’z-ko’z qilishga, tashqi bezakka berilganligi, Tojixonning esa oddiy, mehnatda chiniqqan ayollardan ekanligi ko’rsatilgan.

Ayrim asarlarda qahramon portreti badiiy tasvir vositalari (masalan, sifatlash, o’xshatish, jonlantirish, mubolag’a) yordamida tasvirlanadi. Bu holatni Hamid Olimjonning “Zaynab va Omon” dostoni qahramonlari tasvirida ko’rish mumkin. Bu asarlarda qahramonlar portreti sifatlash va o’xshatishlar orqali chiziladi. Ba`zan yozuvchilar qahramonlar potretini ularning xatti-xarakati, untqi, boshqalarga munosabati orqali ham ifodalaydi, shu yo’l bilan kitobxonda qahramon haqida tasavvur hosil qiladi.

Har bir davrda muayyan shart-sharoit va jamiyat taraqqiyotidan kelib chiqib, ngi muammolar tug’iladi. Qaysi asarda davrning yetakchi xususiyatlari to’g’ri aks ettirilsa, u tarbiyaviy jihatdan shu darajada katta ahamiyat kasb etadi, qahramon obrazining ta`sir kuchi oshadi.

Qahramon obrazi tasvirida ma`lum bir davr va xalqqa xos xususiyatlar bilan birga, umuminsoniy munosabatlar ham alohida o’rin tutadi. Masalan, Oybekning ulug’ bobomiz Alisher Navoiy bolaligi haqida hikoya qiluvchi “Alisherning yoshligi” qissasidagi Alisher, Hakim Nazirning 60-yillar bolalar hayotidan olingan “Yonar daryo” qissasidagi Damir, Xudoyberdi

¹ Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o’qitish metodikasi: Adabiyot o’qituvchilari uchun qo’llanma.- T.: O’qituvchi, 2000.-B. 123.

To'xtaboyevning Vatan urushi davri bolalar hayotiga bag'ishlangan "Besh bolali yigitcha" sarguzasht romanidagi Orifjon, Nosir Fozilovning "Saraton" qissasidagi To'ra va Kamolalarni o'z davri va ayni paytda, kishilik dunyosiga xos xislatlar birlashtirib turadi.

Ko'pgina qahramonlarning ta'sir kuchini bevosita hayotdan olinganligi bilan izohlash mumkin.

Adabiy qahramonlar nisbatan ancha kengdir. Ularning estetik tarbiyaviy qimmatini ham shu bilan belgilanadi. Lekin qahramon obrazini umumlashtirish tipiklashtirishni inkor etmaydi, balki shart qilib qo'yadi. Qadim yunon faylasufi Aristotel "Poetika" asarida poeziya (ya'ni adabiyot)ning bosh predmeti inson bo'lib, u inson hayotining ma'lum jihatlarini umumlashtiradi, degan fikrni ilgari surganida, shubhasiz, qahramon obrazining tipikligi masalasini ham nazarda tutgan. Shunga ko'ra, tipiklik masalasi adabiyot va san'atning o'zi bilan birga tug'ilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Aslida tipiklik san'at turlarining hamasiga xos muhim xususiyatlardan birini tashkil etadi.

Aytaylik, qarshimizda quvnoq qizchani gulzorda kapalak quvlab yurgani manzarasi chizilgan surat turibdi. Ravshanki, rassom o'z asarida qizchani qalbi quvonchga to'lganini, bahor yanglig' to'lib toshganini ifodalagan. Bu esa barcha kichkintoylarga xosdir. Shunga o'xshash holatni haykaltaroshlik san'atida ham ko'rish mumkin.

Yozuvchi hayot voqealarini o'rganar ekan, uni o'z qalbida yakka ko'rinishda, keyinchalik o'xshash boshqa voqealarni ham qo'shib, ularning hammasiga xos xarakterli xususiyatlarni ma'lum bir qahramon mujassamlashtiradi. Bundan ko'rinadiki, qahramon birinchi galda, hayotdagi tipik voqealar zaminida tasvirlansagina to'laqonli obraz darajasiga ko'tarilishi mumkin. Tipiklikka tashqi jihatdan emas, obraz va sharoitning ichki qonuniyati asosida amal qilish badiiylikning zaruriy talabidir. Negaki, yozuvchi qahramon hayotida ro'y bergan har bir voqea-hodisani tasvirlash imkoniga ega emas.

Qahramon obrazining tipiklik darajasi turlicha bo'lib, san'atkorning dunyoqarashi va ijodiy usuliga ko'ra aniqlanadi. Uning haqqoniyligi yozuvchining hayotni keng umumlashtirishi, voqea va hodisalarning asl mazmuniga yanada chuqur kirib borib, ularni boshqaradigan qonuniyatlar mohiyatiga aniq tushuna olishiga bog'liq. Umumlashma obraz, ayni paytda yakka shaxs hamdir.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Besh bolali yigitcha" romanidagi Orifjon, Nosir Fozilovning "Saraton" qissasidagi To'ra ana shunday qahramonlarning yorqin misolidir. Ularning ikkalasi ham Vatan urushi qiyinchiliklarini boshidan kechirgan, o'spirinlarning umumlashma obrazlari darajasiga ko'tarilgan. Orifjonning yelkasiga xiyla og'ir vazifa yuklatilgan: og'ir damlarda beshta ukasini boqadi, evakuatsiya qilinganlarga yordam uyushtiradi. Ularning bir-biridan farqi, avvalo, mualliflarning voqelikni aks ettirish, qahramon xarakterini ochish yo'sinida-shaxsiy uslubida ko'zga tashlanadi.

"Besh bolali yigitcha" sarguzasht roman bo'lgani uchun qahramonning harakat doirasi, imkoniyatlari katta. Bundan tashqari, tasvirda qiziqarlilik birinchi o'rinda turadi. "Saraton" sof ma'nodagi realistik qissa bo'lganligi tufayli qahramon "qadamini" o'ylab bosadi.

Maktabda badiiy asarni tahlil qilish yo'lari-uni o'rganishning umumiy yo'nalishini, o'qituvchi bajaradigan ishning umumiy yo'nalishini, o'qituvchi bajaradigan ishning rejasini belgilab olish yo'lidir. Tahlil usullari esa, badiiy asarni tushunish va his etish, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish o'qituvchining har bir mashg'ulotda qo'llaydigan ish uslubidir. Tahlil usullari dars jarayonida adabiy asarni o'rganishda o'qituvchi bilan o'quvchilar bajaradigan ishlarni muayyanlashtiradi. Binobarin, bu usullar darsning barcha bosqichlarida – ifodalai o'qish va qayta hikoyalash, matnni izohlash va qiyoslash, yozuvchiga ergashib tahlil qilish, asar qahramonlari, ya'ni ishtirok etuvchilari tartibini aniqlash va asarni muammoli tahlil qilishda faol qo'llanadi.

Adabiy asar matni tushunish usullari tushunchasi ta'lim usullari tushunchasiga nisbatan birmuncha chegaralangan bo'ladi. Masalan, badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi bo'yicha jadval tuzish, asarni o'rganishda eng qiziqarli ishlardan hisoblanadi. Bu usul yozuvchi tarjimai holini o'rganishda ham, adabiy matni tahlil qilishda ham, umumiy mavzularni o'tishda va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida ham qo'llanadi. Bu yo'nalishda, ya'ni har bir asr bo'yicha tuzilgan jadval o'quvchilar ko'z o'ngida asar muallifi qiyofasini, hayotga bo'lgan munosabatini yaqqol gavdalantirishi bilan birga, muallifning g'oyasi va dunyoqarashini chuqur anglashga yordam beradi.

Asarni tahlil qilish usullari, ko'pincha, ma'ruza va suhbat yoki o'quvchilarning mustaqil ishi shaklida amalga oshirilishi mumkin:

O'quvchilarning asarni idrok qilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirish uchun zarur bo'lgan usullarni, asarlarning xususiyatiga tayangan holda o'qituvchining o'zi tanlaydi. O'qituvchi uchun badiiy asarni o'rganib, eng zarur va qulay usullarni tanlash va uni muvaffaqiyat bilan amalga qo'llash ijodiy ish sanaladi. Binobarin, ruhshunoslik va adabiyot o'qitish usuli hamisha o'qituvchining hamrohi, yordamchisi bo'lsa ham, undan hamma vaqt o'qish darslari jarayonida yangi-yangi usullarni o'ylab topish, doimo ijodiy faoliyat ko'rsatishni taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida badiiy asarni o'rganishda o'quvchilarning badiiy asarni his etishi va unga bo'lgan munosabatni asar muallifi tutgan yo'lga uyg'unlashtirilishi lozim. O'qituvchi maktabda badiiy asarni o'zlashtirib olish jarayonini yaratadi. Bunda o'quvchilarning bilimni qanday o'zlashtirganliklarini bilish bilan birga, ularga badiiy asarni anglab olish yo'llarini topa bilish, adabiy matni mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivoj toptirishga ham alohida e'tibor beriladi. Zero, maktabda badiiy asarni tahlil qilishdagi vazifa-o'quvchilarning so'z san'ati bilan samarali muloqotda bo'lishlariga erishishdan iboratdir. Bu vazifa amalga oshirilishi bilan o'quvchilarning adabiy matni ijodiy jarayon sifatida zavq bilan o'rganishga rag'batlantiriladi.

O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyyatini bilib olishlariga, asar

mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql-zakovat, his-hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim. Bu o'qituvchidan katta ijodiy izlanishni talab etadi, albatta. Ijodiy izlanish esa, maktab tahlili to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishni, badiiy tafakkur qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. O'qish ham ijoddir. O'qish san'atni his etish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Badiiy ijod qonuniyatlari bilan o'quvchining qabul qilishi o'rtasida umumiylik mavjud bo'lsa-da ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega.

Yozuvchi asarni yaratar ekan, voqelikka bog'liq holda timsollar, lavhalar yaratadi va o'quvchining e'tiborini ularda ifodalangan fikrlarga jalb etadi. Kitobxon ijodi uchun asosiy material – san'atkor tasvirida mujassamlashtirilgan hayotiy voqealardir. Kitobxon asarni o'qish bilan ular haqida tasavvurga ega bo'ladi. Asarni o'qish jarayonida o'quvchi unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishi kerak. O'quvchining asarga jiddiy munosabati uning badiiy adabiyot bilan to'g'ri muloqotda bo'lishida, o'qilgan asar samarasi aksini topadi.

Maktabda badiiy asar o'quvchining qabul qilish qobiiyati va badiiy tafakkur qonuniyatlariga asoslangan holda o'rganiladi va tahlil qilinadi. Bu, ishning qanyachalik samarali bo'lganligi asarni chuqur o'rganish, uni faol his etish orqali o'quvchida paydo bo'lgan izlanishlarda namoyon bo'ladi. Demak, asarda bayon qilingan voqealarning o'quvchi ongiga singishi uchun, u asar mazmunini mantiqan his etishi lozim.

Badiiy ijod qonuniyatlariga tayanish zarurati, his-hayajonni kuchaytirish, tafakkurni rivojlantirish, ayniqsa, sahnabop asarlarni o'rganishda aniq seziladi. Sahnada ijod etishga mo'ljallangan asar o'quvchi ongini faollashtiradi, his-tuyg'ularini kuchaytiradi. Har bir qahramon o'z nutqi, so'zlash usuli, xatti-harakati bilan o'quvchining ko'z o'ngida yaqqol gavdalanadi, o'quvchilar san'atkor va rejissor faoliyatiga taalluqli bo'lgan badiiy va ijodiy vazifani ham anglab oladilar.

Obrazlilikni, jozibalilikni, izchillikni, hayajonlanishni idrok etish-bularning hammasi yosh kitobxonning tasavvuriga ta'sir etuvchi badiiy tilning go'zalligiga

taalluqli bo`lib, bular asarni chuqur his etishlariga yordam beradi. Shu boisdan boshlang`ich sinf o`qish darslarida badiiy asarni tahlil qilishda o`quvchilarning ijodiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda badiiy tafakkur qonuniyatlariga yaqinlashtirish zarurati yozuvchining g`oyaviy niyati, uning kitobxon oldiga qo`ygan vazifasidan kelib chiqib hal etiladi.

Boshlang`ich sinf o`qish darslarida badiiy asar tahlili uning janr xususiyatiga qarab o`tkaziladi. Masalan, nozik his-tuyg`ular ifodalangan lirik she`rlar nasriy asarlarga nisbatan boshqacha tahlil shaklini qo`lashni talab etadi. Dramatik holat, xayollar zaminida bunyodga kelgan nasriy asarlar esa, sahnabop (dramatik) lirik asarlarga nisbatan boshqacha tahlil usullarini qo`llashni taqozo etadi. Chunki nasriy asarlarda obrazlar, tabiat manzarasi yoritilgani sababli o`quvchi yozuvchi tomonidan yaratilgan lavhalarga fikran qo`shiladi, muallifga ergashadi.

Umuman, boshlang`ich sinf o`qish darslarida o`tkaziladigan tahlil badiiy ijod bilan bog`liq bo`lgani sababli, adabiyot san`at sifatida, san`atning qonun-qoidalariga suyangan holda o`rganiladi. Shundagina o`quvchilar badiiy asarni san`at namunasi ekanini anglab oladilar.

Bugungi kun ta`lim sohasi oldiga qo`yilgan yangi vazifalar kichik maktab yoshidagi o`quvchilar umumiy rivojlanishining o`sganligi, ruhiy va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o`qish mazmuni va o`qitish metodiga o`zgartirish kiritishga sabab bo`ldi. Shularga bog`liq holda badiiy asarni tahlil qilish uslubiyoti takomillashtirila borildi: takroriy bayon qilish mashqlari kamaydi, ijodiy va o`qilgan matn yuzasidan o`z fikrini bayon qilish ko`nikmasini o`stiradigan mashqlar ko`paydi, asar qismlari ustida emas, balki yaxlit asar ustida ishlanadigan bo`ldi, asar g`oyasi va obrazlarini tushuntirishda o`quvchilarning mustaqilligi ortdi, matn ustida ishlashda xilma-xil topshiriq turlaridan, ta`limda texnika vositalaridan ko`proq foydalanila boshlandi va h.k.

O`qish kitoblarida, xususan, 4-sinf o`qish darsligida turli janrdagi badiiy asarlar va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Istalgan asarning obyektiv mazmuni butun borliq, mavjudot, uning turli tomonlari, faktlar va ularning bir-biriga ta`siri hisoblanadi. Badiiy asarda hayot obrazlar orqali tasvirlanadi. Shuni ta`kidlash kerakki, badiiy asar markazida inson, uning jamiyat va tabiatga munosabati turadi.

Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, obyektiv mazmun va subyektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, badiiy asar ustida ishlashni tashkil qilishda obrazlar va muallifning asarda tasvirlangan voqealarga munosabati o`qituvchining diqqat markazida turadi. O`quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o`ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy davrdagi voqealar tasvirlanadi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqealarga tarixiy yondashilgan taqdirdagina matni to`g`ri o`qish, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati sabablarini tushunish, faktlar va voqealarni haqqoniy baholash mumkin. Buni boshlang`ich sinflarga tatbiq etganda, avvalo, bolalarni asarda tasvirlangan davr bilan qisqacha tanishtirish, keyin o`quvchilarda qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatini ular yashagan davrni va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda baholashni o`stirish tushuniladi. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o`quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq.

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi asar tahlilidir. Asarni tahlil qilishning asosiy yo`nalishi matnning aniq mazmuni (voqealar va uning rivojlanishi)ni, kompozistiyasini, ishtirok etuvchi shaxslarning axloqi va xarakterli xususiyatlarini, asarning g`oyasini aniqlash hisoblanadi.

Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodali vositalari bilan bog`liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta`lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo`nalishini belgilaydi, shuningdek, matni tahlil qilish jarayonida o`quvchilar bajaradigan

topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi

Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

Tanlab o`qish. Bunda o`quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o`qiydi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab - natija bog`lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o`qilgan matnga o`z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo`lishi mumkin. Masalan, 4 - sinfda "Oltin kuz" matnidan "Tabiatdagi o`zgarishlar berilgan qismlarni topib o`qing", "Baqa va taqa" ertagidagi "Taqachining nasihati berilgan joyni topish o`qing" kabi.

Tanlab o`qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o`qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o`quvchilarda yaxshi o`qish sifatlarini o`stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o`stirishga yordam beradi.

Tanlab o`qishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog`langan faktlarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o`rinlarini topib o`qish hisoblanadi. Masalan, "Xarita" hikoyasi (Normurod Norqobilov yuzasidan topshiriqlar:

- Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qo`ydi? Shu o`rinni topib o`qing.

-Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan o`rinni topib o`qing.

Bunda o`quvchi biror qatnashuvvchi shaxs o`zini qanday tutishini, nima uchun u shunday tutishini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o`qiydi.

Tanlab o`qish ongli va ifodali o`qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko`nikmasini shakllantirish bilan birga qo`shib olib borishga, bolalarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehni o`stirishga imkon beradi, shuning uchun undan o`qish darslarida keng foydalaniladi. Tanlab o`qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya`ni reja qismini topishda) qahramonga tavsif berish (matndan qahramonning muayyan bir

xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar tanloash) da, asar g'oyasini aniqlash (g'oyani anglatgan o'rinni topib o'qish) da tatbiq etiladi.

O'quvchilarning berilgan savol va topshiriqlarga o'z so'zlari bilan javob berishi. Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida savolva topshiriqlar qaysi maqsadga yo'naltirilganiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Asar mazmunini o'zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlar.

2. Asar tilini o'rganish va o'zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o'qituvchi asar g'oyasini tushunishda o'quvchilarga yordam berishni ko'zda tutsa, savol sabab-natija tarzida bo'ladi. Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlanadi.

Boshlang'ich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berish ish turiga katta o'rin berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

O'quvchilarni savol berishga o'rgatish. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi. O'quvchilar uni ongli o'zlashtira olsalargina matn yuzasidan savol bera oladilar. O'quvchilarga savol berishni o'rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o'rgatish uchun o'qituvchi matnga o'zi tuzgan yoki "O'qish kitobi"da berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun "Nega u yoki bu savol qo'yilgan? Unda kim yoki nima haqida gap boradi. Savol ko'proq qaysi so'zlar bilan boshlanadi?" kabi savollarni ishlatadi va

matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o`rgatadi. Ikkinchidan, o`qituvchi o`quvchilar e`tiborini matnga savol tuzish yo`liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matni diqqat bilan o`qish, qatnashuvchi shaxslarni ko`rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi. Savol tuzishga o`rgatishning boshlang`ich bosqichi bu mashq jamoa bo`lib bajariladi va ta`limiy xarakterda bo`ladi; buning uchun qulayroq savol ajratilib, nima uchun u qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo`lsa nima uchun noqulayligi tushuntiriladi. Masalan, 3-sinfda “Ahillik ulug` baxt” ertagida “Odamlarning cholning bolalari haqidagi fikri” yuzasidan savol tuzing (Odamlar aqlli cholning bolalari haqida nima deyishdi?)

-Hikoyaning birinchi xatboshini o`qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

-hikoyaning 1-xatboshisida qo`llangan so`zlarning ma`nosini izohlash bo`yicha savol-topshiriqlar tuzing. (bejirim, sertor, so`zlarining ma`nosini izohlang.)

- Hikoya qahramonlari yuzasidan savollar tuzing kabi.

Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o`zlashtirib oladilar.

Matni tasvirlash. Matni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) so`z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.

So`z bilan tasvirlash o`ziga xos murakkab ish turi bo`lib, unda manzarani so`z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so`zlarni aniq tanlashga e`tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko`rinishini, voqea sodir bo`lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matni so`z bilan tasvirlashga o`rgatishni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So`z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so`ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko`rinishi tasvirlangan o`rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o`rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko`riladi, ya`ni yozuvchi, shoir qo`llagan lug`aviy birliklarga o`quvchilar diqqati tortiladiva ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so`zni aniq tanlashga yordam beradi.

4. So`z bilan tasvirlashga o`rgatishning dastlabki paytida doskaga foydalaniladigan so`zlar yozib qo`yilishi zarur. So`z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib asligi lozim.

Grafik tasvirlash ko`proq uyda bajariladi. Buning uchun o`quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o`qib chiqadilar, mazmunini o`zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar. Bunda o`quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma`nolar bo`yicha suhbat o`tkaziladi. Rasmlar ko`rgazmasi tashkil etiladli. Har bir rasm muallifi o`zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflar grafik tasvirlashda sinfda bajartirilishi mumkin. Bunda o`quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

O`quvchilar asar voqealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo`yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to`liq, qayta hikoyalash, shuningdek, o`qilgan hikoya,maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o`zaro bog`lanishini tushunishda o`quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o`quvchilar nutqi va tafakkurini o`stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo`lishga va har bir qismning asosini topishga ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o`rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o`rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn

mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar.

Reja tuzish "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zlari so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi.

O'quvchilar rasmi reja tuzishdan logik reja tuzishga o'tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yoziladi. O`quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo`lish topshiriladi. Ular matnni o`qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

4. Qismlarga bo`linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O`quvchilarga yuqoridagiday qismlarga bo`lish topshiriladi. O`quvchilar matnni o`qib, nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

O`quvchilarda reja tuzish ko`nikmasi hosil bo`lgach, ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo`ladilar. (3-4- sinf) Har bir qismga reja tuzadilar. Rejani 3-4-sinflarda darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar. Rejada har bir qismi bir turdagi gaplar shaklida bo`lishi lozim.

Hozir maktab tajribasida izohli o`qish, ijodiy o`qish, adabiy o`qish usulidan, muammoli o`qitish metodlaridan, ilg`or pedagogik texnologiya metodlaridan ham keng foydalanilmoqda. Masalan, A.Qodiriyning «Chin do`st» hikoyasini o`rganishda izohli o`qish metodidan foydalanish mumkin. Chunki bu asar matnida o`quvchilarga lug`aviy ma`nosi tushunarsiz bo`lgan so`zlar uchraydi. Masalan, hikoyadagi saboqdosh, mirzaboshi, havolanmas, asrandi, g`arq, holda, mahdum, marsiya, xun, hamnishin, dildor, notavon, g`urbat kabi so`zlar izoh talab etadi.

Metodik adabiyotlarda badiiy asar matnini tahlil qilishning uch usuli: badiiy asarni yozuvchiga ergashib yaxlit o`rganish; obrazlar vositasida o`rganish, mavzuli - muammoli o`rganish alohida ajratib ko`rsatiladi.

Boshlang`ich sinflarda, asosan, tekstual tahlildan foydalaniladi, ya`ni, o`qituvchi asarni tahlil qilishda asar matniga asoslanadi. Uni o`zgartirmagan holda undagi ma`noni, jozibani o`quvchilarga yetkazib beradi.

Boshlang`ich sinflarda muammoli tahlil usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, “Bobur va Humoyun” hikoyasini o`rganishda o`quvchilarga “Boburning aytgan gaplari o`rinlimi?”, “Hikoyadagiday holat sodir bo`lishi

mumkinmi?” kabi muammoli savollar berish o`rinli bo`ladi. O`quvchilar asarni ichda o`qiydilar, jamoa bo`lib fikr almashadilar, bahslashadilar. Bahs davomida o`quvchilar ma`naviy olamida ham, aqliy dunyosida ham muayyan o`zgarishlar, rivojlanishlar sodir bo`ladi. Asar tahlilida qo`llanadigan tanlab o`qish, unga munosabat bildirish, munosabatlarning turli xilda bo`lishi ham munozarani keltirib chiqaradi. Munozarali o`rin muammoni yuzaga keltiradi. Endi o`quv jarayoni oldida muammoni to`g`ri hal etish vazifasi turadi.

Shunday qilib, boshlang`ich sinflarda ham badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o`rganishda o`quvchi shaxsiga kuchli ta`sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o`zlashtirilishini ta`minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Umumiy o`rta ta`limning birinchi bosqichi bo`lgan 1-4- sinflar dasturida o`quvchilarda kitobxonlik madaniyati va nutqini o`stirishga alohida e`tibor beriladi, badiiy asar bilan ishlash ko`nikmasini tarbiyalash va o`stirish nazarda tutiladi. Dasturda badiiy asarni to`g`ri, tez va ifodali o`qish ko`nikmasini tarbiyalash va rivojlantirish yo`li bilan o`quvchilarda asar ustida mustaqil ishlash va uni o`qish malakasini o`stirish asosiy vazifa qilib qo`yiladi. Bu sinflarda o`quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mazmunini to`liq tushunishga odatlanadilar, ya`ni asarning ta`sirchanligini, obrazlilikini his eta boshlaydilar. Shu asosda ularda axloqiy, estetik, obrazli taassurot tarkib topadi.

Boshlang`ich sinflarda o`quvchilar ertak, hikoya, masal, she`r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o`qish orqali ularda ifodalangan voqea-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar, o`qigan asarlariga baho berishni o`rganadilar; ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo`llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O`quvchilar asar mazmunini o`zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o`rtasidagi bog`lanishni belgilashga o`rganadilar. Badiiy asarni o`qish bilan bolalarda o`zlarini o`rab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo`ladi.

O`qish darslari o`quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o`qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O`quvchilar adabiy ma`lumotlarni o`zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g`oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O`quvchilarning nutqini o`stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o`rin tutadi. O`quvchilar adabiy tushunchalarni o`rganish natijasida badiiy adabiyot san`atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Asar tahlilida o`quvchilarning hayotiy taassurotlari va asarni o`rganish natijasida ularda paydo bo`lgan estetik his-tuyqular hisobga olinadi. Aks holda, o`quvchilarning bilim olishga bo`lgan qiziqishi susaya boradi.

Maktabda bolalar adabiyotini o`qitishda aniq ma`lumotlarga, badiiy asarni o`rganish natijasida o`quvchilarda tug`iladigan his-tuyg`ularga suyanib ish ko`riladi. Bu esa o`quvchilarda asar muallifi, obraz, g`oya, adabiy tur, syujet kabi adabiy tushunchalarni elementar tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang`ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari - sifatlash, o`xshatish, jonlantirish, mubolag`a va adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she`r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asarda g`oyaviy mazmun obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar esa so`zlar yordamida yaratiladi. So`z adabiyotda badiiy obrazni yaratish qurolidir. Asarning badiiy ifodaliligi yozuvchining undan qay darajada foydalanganligiga bog`liq.

Asarda tasvirlangan hayotiy voqea-hodisalarni obrazli aks ettirishda badiiy til asosiy vositadir. Shuning uchun ham badiiy asar yuzasidan olib boriladigan kuzatish ishlari har bir obrazni, umuman badiiy asar mazmunini ochishda katta ahamiyatga ega.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o`quvchilarda o`z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o`qish ko`nikmasi o`stiriladi, asar g`oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o`quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og'zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkir syujetlilik va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o'qib bo'lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

Ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi kontekstdan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi¹.

4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning ahamiyati kattadir. Chunki 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilar har xil janrdagi asarlar bilan yaqindan tanishish orqali ushbu asar qahramonlariga tavsif berishga, ijobiy va salbiy qahramonlarni ajrata bilishga, yaxshini yomondan farqlashga o'rganishadi. Bu kabi asarlar esa o'z navbatida ularning ushbu asar qahramonlariga hurmat bilan yoki salbiy munosabat bilan qarashga olib keladi. O'quvchilar ijobiy xarakterdagi qahramonga havas qilib ularga o'xshashni istasalar, yomon, ya'ni salbiy xarakterdagi qahramonlardan nafratlanadilar. Yoki ulardagi salbiy xarakterlarni o'zlarida takrorlanmasligiga harakat qiladilar. Umuman olganda, bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobi orqali boshlang'ich sinf o'qish darslarida, yana ham aniqrog'i, 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni qahramonlarga tavsif berishga o'rgatish orqali ularda ijobiy xarakterdagi shaxsni tarkib topishiga, jamiyatda yomon illatli insonlarning kamayishiga turtki beruvchi asarlar qahramonlaridan o'zlariga kerakligini o'z bilishlariga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- B. 81-103.

2- bob.

4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish usullari

2.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari va ularni tashkil etish

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligi oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish

motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday oyinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Bola yosh bo'lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o'rganish kabi zarur yumushlari ko'p. Muhimi, o'yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o'tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40—45 daqiqalik darsda o'tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o'qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o'z-o'zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o'yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalb etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalb etiladi,

xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bogliq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u dastavval qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan edi. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalariga o'qitib so'zlatgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblari bilan yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga oid bilimlarni o'zlashtirgan.

Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pag'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf - dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnologiyalarni kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xorijiy mamalatlarda ko'plab pedagogik nazariyalar vujudga keldi. Ularning ayrimlari ta'lim-tarbiya tizimini yaxshilashga, o'quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan edi.

Shu davrlarda «Yangi maktablar» degan pedagogik oqim paydo bo'lib, uning asoschisi fransuz pedagogi E. Demolen edi. Bunday maktablar Angliya, AQSh, Fransiya, Belgiya, Shvetsariya kabi ko'plab davlatlarda ochildi. Jenevada «Yangi maktablarning xalqaro birlashmasi» tuzildi va unda yangi maktablarga qo'yilgan talablar belgilab berildi. Bu maktablar xususiy bo'lib, unda haq to'lashga kadir kishilarning bolalarigina o'qitilgan. Yangi maktablarda ish yaxshi yo'lga qo'yilgan, to'liq jihozlangan kabinet va laboratoriyalar tashkil etilgan, «erkin va faol» metodlar qo'llanilgan. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari bo'lgan.

Maktablarning amaliy pedagogik laboratoriyasi bo'lib, bolalarning miyasini yodlab olingan bilimlar bilan to'ldirish orqali ta'lim berish o'rniga, ularning fikrlash qobiliyatini umumiy o'stirish yo'li bilan ta'lim berishga harakat qilingan. O'quvchilarga qanday qilib kuzatish, gipotezalar topishni, o'z taxminlarini tekshirib ko'rishni o'rgatganlar. Bunday maktablarda o'qitish faktlarga va tajribaga tayanishga, bolalarning tashabbuskorligi va mustaqilligini tarbiyalashga asoslangan edi.

XIX asr oxirlarida Germaniyada pedagog Vilgelm Avgust Lay (1862-1926) «ish-harakat pedagogikasi»ga asos soldi. Uning g'oyalarida ham o'ziga xos ijobiy tomonlari, yangiliklar bor edi. Lay pedagogik jarayonda ifodalash, tasvirlashga katta ahamiyat berdi, chunki uning fikricha, mana shunday ifodalash yoki tasvirlash jarayonida o'quvchilar o'z faolliklarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar, harakat qiladilar.

Uning fikricha, tasvirlashning har qanday turlari: rasm solish, loy va plastilindan buyumlar yasash, har xil narsalarning modelini yasash, chizmachilik, drammatizatsiya, ashula, musiqa, raqslar, shuningdek, o'simlik hamda hayvonlarni parvarish qilish tajribalarini o'tkazish, og'zaki va yozma ishlar va shu kabilar ta'lim jarayonidagi «ifodalash» vositalaridir. Lay fikricha hamma darslar ana shu qoidalar asosiga qurilishi lozim.

- Mavzuning barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning ravon va to'g'ri, ongli va ifodali o'qishining takomillashuviga erishish;

- mashg'ulotga o'quvchilarning faol qatnashuviga erishish; ularning o'qish motivlarini qo'zg'ash va qiziqtirish, o'quvchilarni faollashtirish yo'llarini belgilash va qo'yilgan maqsadga to'liq erishish;

- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va boshlang'ich ta'limda uni qo'llash yo'llarini izlash va takomillashtirish, o'z ustida ishlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish motivlarini o'stirish ustida ishlash;

- darsni hayotiy tajribalar bilan bog'lash va buning oqibatida o'quvchi to'g'ri, ongli va ifodali o'qishga o'rganad turli mashqlar vositasida tez o'qish malakalari takomillashadi. Vatan haqidagi tushunchalari kengayadi, Vatanga muhabbat shakllanadi, Vatandan g'ururlanish, ya'ni milliy g'umr shakllanishiga asos yaraladi. Matn bilan mustaqil ishlashga o'rganish. O'z fikrini erkin bayon etishga o'rganish; o'rganilganlar asosida ertak, maqol, hikmatli so'zlar, tez aytishlarni o'rganish. o'rtoqlari fikrini ma'qullash yoki yangi fikrlarni aytishga o'rganish.

Dars qurilishida ham qat'iy andoza, birinchidan, ijodkorlikka yo'l bermaydi, ikkinchidan, o'quvchilarning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Shuning uchun ham biz o'qish darsnining taxminiy algoritmini diqqatingizga havola etamiz:

Darsning maqsadi.

Ta'limiy maqsad:

- a) o'quvchilarning to'g'ri va ravon o'qish malakalarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra, o'quvchilarning xususiyatiga mos tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad:

- a) o'quvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish;
- b) matn mazmuniga ko'ra aqliy, ma'naviy-a'loqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

- a) o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish;
- b) tez, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish;
- d) dunyoqarashlarni, hulq-odob, insoniy munosabatlarni, aqliy, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirish;

Darsni tashkil etish:

Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilarga darsga qiziqish uyg'otishi zarur. Yani, **Motiv hosil qilish**: Buni darsning o'tgan darsni mustahkamlash qismida va yangi darsni o'tishga tayyorgarlik qismida, butun dars davomida ham amalga

oshiriladi. Motiv hosil qilishda turli didaktik o'yinlar, topshiriqlar, musobaqalar va boshqa ish usullaridan foydalaniladi.

2-O'quv elementi. Matnni o'qishga tayyorgarlik: yozuvchi haqida ma'lumot beriladi. Matn mazmuni haqida tushuntirilib, o'quvchilarning matn- ga qiziqishlari oshiriladi. Ba'zan matn mazmuni haqida gap boshlab, qolganini kitobdan o'qib, o'rganamiz, deb o'qituvchi bolalarning matnga qiziqishini oshiradi. Tarbiyaviy ta'sirini kuchaytiradi.

3-O'quv elementi. Matnni o'qish va mazmunini so'zlash. Bunda o'qituvchi matnni o'zi o'qib beradi va mazmunini tushuntiradi yoki bu ishni tashkil etishda o'quvchilar faolyatidan ham foydalanishi mumkin.

4-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

5-O'quv elementi. Lug'at ustida ishlash. Notanish so'zlarga izo' berilib, o'quvchilarning so'z boyliklari oshiriladi (bunda ko'proq o'quvchilar faoliyatini ishga solish lozim), dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi.

6-O'quv elementi. O'quvchilar matnni o'qiydilar. Bunda ham motivni rivojlantirish uchun o'quvchilar guruhlashtirilishi mumkin. 2 ta, 3 ta 4 tadan o'quvchilar guruhi matnni navbat bilan o'qiydilar. To'g'ri, ravon va ifodali o'qishga alohida diqqat qaratiladi. Shu talablarga rioya qilgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

7-O'quv elementi. Topshiriq bilan o'qish. O'qituvchi o'quvchilarning o'qish malakalarini rivojlantirish, o'qiganini tushunib olishga o'rgatish uchun turli mashq usullaridan foydalanadi. Matn mantiqiy qismlarga bo'linib, har bir qismining mazmunini so'zlash topshirig'i, qismlarga alohida sarlav'a topish, reja tuzish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Bu o'quvchilarning dunyoqarashlarining rivojlanishi, mantiqiy fikrlashga o'rganishiga yordam beradi.

8-O'quv elementi. Quvnoq daqiqa.

9-O'quv elementi. Matn mazmuni ustida ishlash. O'quvchilar matn mazmunini so'zlab berishlari yoki turli didaktik o'yinlar vositasida mazmunni o'zlashtirishi mumkin.

Masalan, «Davom ettir» o'yini: O'qituvchi matn mazmunini hikoya qilishni boshlaydi, bir o'quvchi uni davom ettiradi. Shu taxlitda barcha o'quvchilarni matn hikoyasiga qatnashtirish mumkin.

«Zanjir» o'yini: matndagi bir necha so'zlar vositasida bu o'yinni o'ynash mumkin. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi, so'zning tugagan harfidan boshlanadigan so'zni bir o'quvchi aytadi, shu taxlitda hamma o'quvchilarni o'yinga qatnashtirish mumkin.

«Tez javob»: O'qituvchi yoki boshlovchi o'quvchilar qatori oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va biror tur nomini aytadi. O'quvchi shu turga kimvchi so'z topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanaguncha aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. O'yin toki bir o'quvchi qolguncha davom ettiriladi. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakasi rivojlanib, atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga o'rganadi, atrofdagi sodir bo'ladigan voqea va hodisalarga qiziqishi ortadi.

Bu o'yindan dars davomida o'tilgan mavzuga bog'lab, darsning mustahkamlash qismida yoki dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin.

O'qituvchi: «Hayvon».

O'quvchi: «It».

O'qituvchi: «O'quv quroli».

O'quvchi: «Daftar».

O'qituvchi: «Sinf jihozi».

O'quvchi: «Xontaxta».

O'qituvchi: «Ertaklar».

O'quvchi: «Zumrad va Qimmat» va hokazo.

Shu kabi o'yinlardan foydalanish orqali o'qituvchi o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantiradi va ularning dunyoqarashlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, o'quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, bilimdonlik kabi sifatlarni rivojlantiradi, xulqiga ta'sir ko'rsatadi.

10-O'quv elementi. O'quvchilar bilimni nazorat qilish. Nazoratni yo'qoridagi didaktik o'yinlar vositasida va testlardan foydalanib o'tkazish mumkin.

Agar tekshirish davomida dars maqsadiga erishilgan bo'lsa, demak dars texnologiyasi to'g'ri ishlangan va uni takomillashtirish muntikin. Agar maqsadga erishilganlik darajasi past bo'lsa, demak loyihani korrrektirovka qilish (o'zgartirishlar kiritish) kerak. O'qituvchi qaerda xato qilganini bilib, xatolarini tuzatadi.

Bu dars yangi bilim berish darsining algoritmi bo'lib, uni boshqacha tarzda ham tashkil qilish mumkin.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish talab etiladi

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar berilgan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida Beruniy sxolastik metodlardan voz kechish, dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishini ta'kidlab o'tgan. «Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi»⁵

Ta'lim berish o'qituvchidan izlanishni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Ilmiy salohiyatga boy bo'lgan ustozgina mavzuni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga mahorat bilan etkazib beradi. Mavzuning maqsadiga qarab, ta'lim metodlarini tanlay biladi, kerakli vositalardan o'z o'rnida foydalanadi.

O'quv informatsiyasini so'z orqali uzatish va axborotni eshitish orqali qabul qilish metodlariga nimalar kiradi va ularga qanday talablar qo'yiladig'

O'qitishning og'zaki metodlari uch turga:

- a) o'qituvchining hikoyasi;
- b) suhbat;
- v) maktab ma'ruzasiga bo'linadi.

Hikoya usuli boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladi Ta'lim mazmuni o'quvchiga qisman tanish bo'lsa suhbat usuli qo'llaniladi. Og'zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning o'qituvchining bayon qilishi va o'quvchilarning shu bayon qilingan bilimlarini diqqat bilan tinglab ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qiladi.

Hikoya maktab ta'lim tizimida eng ko'p qo'llanadigan usul bo'lib, u hamma sinflarda barcha fanlarni o'qitishda, maktab ta'limining hamma bosqichlarida qo'llaniladi. Boshlang'ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo'ladi, sinflarning o'rta guruhiga kelib hikoya ancha kattaroq hajmda va davomli bo'ladi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish usuli quyidagi bir qator didaktik qoida va talablarga asosan qo'llaniladi:

O'qish darslarida bayon qilinayotgan materiallar g'oyaviy jihatdan mazmunli, ilmiy hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bayon qilinadigan materiallarning tarbiyaviy ahamiyatini to'g'ri ko'rsatish orqali o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mumkin. Oqish darslarini tashkil etishning qanday hollarida suhbat usuli qo'llaniladig' Uni qo'yishda qanday qoidalarga amal qilish lozim? Suhbat usuli - savol-javob usuli deb ham yuritiladi.

O`quvchilar darsga etarli darajada tayyor bo`lsa o`qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o`zlari axtarib topadigan suhbatlar maqsadga muvofiqdir. Bunday suhbatlar evritsik izlanish, ahtarib topish harakterida bo`ladi.

O`qish jarayonida o`rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo`llaniladi.

Suhbatlar, ayniqsa, o`qitishning tarbiyalovchilik harakterida dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishda qo`l keladi. Suhbatlar butun sinf hamda o`quvchilarning ayrim guruhlari bilan ham o`tkaziladi.

Suhbatlar orqali:

a) O`quvchilarning o`z hayotlarida uchratgan voqea, hodisalar yuzasidan savollar berish orqali o`quvchilarning mustaqil fikr qilishlarini amalga oshiradigan holatlarga e'tibor qilish, o`quvchilarning ilgari o`rgangan tayanch bilimlarini esga tushirishga erishish lozim. Suhbat usuli bilan ish ko`rganda o`qi-tuvchi quyidagilarga amal qilishi lozim:

O`qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf O`quvchilarining hammasiga taalluqli bo`lib, so`roq o`rtaga tashlanishi kerak.

O`quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

Sinfinningamma o`quvchilari javob berayotgan O`quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to`ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlashi kerak.

O`quvchilarning javobi qay darajada to`g`ri-noto`g`ri bo`lishidan qat'i nazar o`qituvchi tomonidan izohlanishi, yakunlanishi va baholanishi zarur.

Ta'lim jarayonida turli ko`rgazmali qurollardan foydalanishga harakat qilamiz. Ho`sh, ushbu o`quv informatsiyasini ko`rgazmali uzatish va ko`rish orqali qabul qilish metodining ahamiyati qandayg` Ko`rgazmalilikning qanday turlari mavjudg` degan savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Ko`rgazmali usulning muhimligi o`rganilayotgan narsa va hodisalarni hissiy idrok etishga, ularni kuzatib mushohada qilishga o`quvchini undash, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch hosil qilishga, nihoyat nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olishga o`rgatishdan iborat.

Ta'limda ko`rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va ekskursiya tariqasida olib boriladi.

Ta'lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materialning harakteriga - mazmuni, shakli va hajmiga bog'liq. Bu harakter ikki turlidir:

Aslicha ko`rsatilishi mumkin bo`lgan buyum va narsalar: o`simliklar, ularning tarkibi, hayvonlar, ma'danlar, kolleksiyalar, asbob va mashinalar, modellar va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar:

A) buyum, narsa, hodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar, rasm, surat, fotosurat, diafilm va h.k.

Tasviriy ko`rgazmali materiallar turliligi har xil qo`llashni talabetadi.

Masalan:

1. Buyum va narsalarni tabiiy holda ko`rsatishni ikki usulda namoyish etiladi:

a) o`tilayotgan mavzuga oid badiiy ko`rgazma materiallari O`quvchi bayon qilayotgan bir vaqtda (faqat o`qituvchi ko`rsatadi);

b) tabiiy ko`rgazmali materiallarning soni etarli bo`lsa ular har bir o`quvchiga tarqatib beriladi.

2. Tasviriy ko`rgazmali materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin:

a) ko`rgazmali materiallarni o`qituvchi namoyish etadi;

b) ko`rgazmali materiallar o`quvchiga tarqatiladi.

O`qitilayotgan mavzuning harakterini hamma vaqt sinfda ochib bo`lmaydi. Bu holda nima qilish kerak ekskursiya metodidan foydalanish mumkin. Mavzuni ekskursiya usuli bilan ham ko`rsatish mumkin. Bu usulda o`rganilayotgan narsa hodisalarni tabiiy sharoitda zavod, fabrika, tabiatda, muzey, ko`rgazmalarda tashkiliy ravishda ko`rsatiladi. Agar ko`rsatilayotgan joyda o`tilayotgan mavzu mazmunini keng ochib berish imkoni bo`lsa, buni o`qituvchi oldindan borib kuzatib keyin O`quvchilarni olib boradi, ekskursiya usulidan foydalanadi, O`quvchilar ekskursiya davomida obekt ustidan ma'lumotlarni eshitish yoki

kuzatish bilan chegaralanmasdan zarur materiallarni yozib oladilar, rasmini chizadilar, o`lchash, hisoblash ishlarini olib boradilar.

O`qituvchi ekskursiya oxirida mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg`ulotni yakunlaydi.

Mashq davomida ilgari egallangan bilim, ko`nikma, malakalar, qonunlar faoliyatga tatbiq etiladi.

O`quvchilarning o`zlashtirilgan ko`nikma va malakalarni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida olib boriladi:

-mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi O`quvchi larga aniq tushuntirilgan borishi;

-mashq ustidan sinf o`quvchilar jamoasi va har qaysi o`quvchilarning shahsiy intilish, qiziqishini hisobga olishi;

-topshiriq butun sinf o`quvchilarining aktiv faoliyatini ta'minlaydigan bo`lishi va mashqni belgilangan vaqt ichida bajarishi talab etiladi.

Mashq qilishda o`quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari alohida o`rin egallaydi.

Mutafakkir Abu Rayhon Beruniy (937-1048) didaktik qarashlarida o`quvchilarni o`qitish hamda tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzularda mulohazalar yuritishni, o`quvchining zerikmasligini, zo`riqmasligini ta'kidlagan.

Ta'lim maqsadini muvaffaqiyatli amalga oshirish yo`lida ta'lim vositalaridan foydalaniladi. Kompyuter, Multimedia, kodaskop, filmoskop, logorifm lineykasi, sirkul, apparat turlari - bular jumlasiga kiradi.

Ta'lim metodlarini to`g`ri tanlash va ulardan o`rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg`or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o`quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o`rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o`qituvchi va o`quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish.

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.
3. Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishontirishingiz haqida o'ylang.
4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.
5. Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang.
6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydala nishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

O'quvchilarda estetik rivojlanish va o'qish madaniyatini shakllanishida ifodali o'qish jarayonidagi emotsional idrok katta a'hamiyatga ega. Shuningdek, o'qish texnikasiga ham e'tibor qaratish zarur.

4. Rejaning qoralamasini tayyorlang. Uni matn bilan solishtiring. Qarang: rejangizda hamma muhim tomonlar o'z aksini topganmig' Reja punktlari mazmunan bog'langanmig' Rejada mavzu va matnning asosiy mazmuni o'z aksini topganmig'

5. Matnni qayta hikoyalashda shu rejadan foydalanish mumkinligini tekshiring.

Hikoyaning rejasini tuzish

1. Hikoyaninhammasini o'qing. Uning qismlarini belgilang. Boshlanishi va tugashini qalam bilan belgilang. Hikoyani qanday qismlarga bo'ldingiz'
2. Birinchi qismni o'qing, undagi bosh g'oyani qalam bilan belgilang va shu qismga sarlav'a qo'ying.

3. Shunday yo'l bilan boshqa qismlarga ham sarlav'a qo'yishga harakat qiling. Rejani yozing. O'qing. O'ylang. Reja muhim tomonlarni o'z ichiga olganiga, asosiy tomonlar qolib ketmaganligiga ishonch hosil qiling.

Qisqacha qayta hikoyalashni tuzish

1. Hikoya rejasini tuzing. Rejaning birinchi punkti va birinchi qismdan uncha muhim bo'lmagan, faqat bosh g'oyani to'ldirishga xizmat qiladigan 23 ta gaplarni ajrating. Matnni shu gaplarsiz o'qing.

2. Boshqa qismlar bilan ham xuddi shu ishni takrorlang.

3. Rejaga qarab hikoyani qisqacha hikoya qiling.

4. Hikoyaning asosiy qismini e'tibordan chetda qoldirmasdan yanada qisqaroq aytish imkoniyatlarini qidiring.

Qahramonlar tavsifi1.

1. Qahramon qanday ishlarni amalga oshirdi? Uning ishtirokidagi epizodlarni o'qing, uning xulqini e'tirof etuvchi lavhalar haqida hikoya qiling.

2. Qahramonning umumiy ko'rinishi qanaqa? Matndan uning tashqi ko'rinishi haqidagi qismni topib, o'z fikrlaringiz bilan to'ldiring.

3. Qahramon qanday so'zlashadi (gaplashadi)? Matndan uning mulohazalarini topib o'qing, muallifning personaj bayoniga bergan ta'rifi.

4. Muallifning qahramonga bo'lgan munosabati Ijodiy darslarda ish turlari

1. «Me'yordan yuqori» o'qishni o'rganish.

2. Voqea sodir bo'lgan joyga ta'rif bering. Ilyustratsiyada tasvirlang.

3. Agar siz muallif bo'lganingizda hikoyani qanday o'zgartirgan bo'lardingiz?

4. Reklama o'ylab toping.

5. Matnni qismlarga bo'ling. Reja tuzing.

6. Qisqacha qayta bayon tayyorlash.

7. Matndan obrazli taqqoslash qismlarini toping.

8. Diafilm tuzish.

9. O'qilgan matnga savol qo'yish.

10. Rollarga bo'lib o'qishga tayyorlash.
11. O'qilganlarga nisbatan maqol, topishmoq tanlash.
12. Masalan «Kuz», «Qish» mavzusiga oid insho yozish mumkin bolgan so'z va gaplarni alohida yozib oling.
13. Matinning asosiy g'oyasini ifodalaydigan gap yoki bo'lakni toping.
14. Kelgusi o'qish darsida o'rganish uchun badiiy matn tayyor lash.
15. O'qigan hikoyangizdan sizga yoqqan joyni yoddan ayting.
16. O'qilgan matndan obrazlar ifodalangan gaplarni toping.
17. O'qigan matningizga illyustratsiya chizing.

5. O'quvchilar bilimini hisobga olish va tekshirishning zamonaviy shakli bo'lgan matnlardan keng foydalanish, o'quvchi rivojlanishini hisobga olib, aniq maqsad asosida guruhda ishlash muvofaqqiyatliroq, Bunday ish turining afzalligi shundaki, o'qituvchi darsga tayyorlanishda aniq maqsadga ega bo'ladi va ishi ancha engillashadi.

Shu o'rinda "Jahon bolalar adabiyoti" bo'limida berilgan H.K.Andersenning "Bolalar gurungi" ertagi misolida bir soatlik darsni berib o'tishni o'rinli deb bildik.

Mavzu: Baxtli bolalik

O'quv material: Bolalar gurungi. (Ertak). H.K.Andersen.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarga chet el bolalar adabiyoti haqida, mashhur ertakchilar H.K.Andersen, aka-uka Grimmlar, J.Svift haqida ma'lumot berish.

2. "Bolalar gurungi" asarida ilgari surilgan kamtarlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini o'quvchilar ongiga singdirish.

3. Matnni mustaqil o'qib, o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi. Suhbat, induktiv metod.

Darsning jihozi. H.K.Andersen portreti, uning asarlari ko'rgazmasi, Andersen ertaklarining bosh qahramonlari surati.

Darsning borishi. 1. Da'vat bosqichi. Metod. Suhbat, hikoya qilish metodi.

Darsning maqsadi. O'quvchilarni H.K.Andersen ijodiga qiziqishini oshirish. H.K.Andersen ijodi bilan tanishtirish.

Doskaga H.K.Andersen ertaklari qahramonlari rasmlari ilib qo'yiladi. (Rasmda "Qor malikasi" ertagi qahramonlari bo'ladi).

Rasmlar yuzasidan suhbat o'tkazish: Rasmda qaysi ertak qahramonlari tasvirlangan? ("Qor malikasi" ertagi qahramonlari, ertakchi, Kay, Gerda tasvirlangan). "Qor malikasi" ertagi qanday voqea bilan boshlanadi? (Key o'z o'rtoqlari...). Ertakchi Gerdaga qanday yordam berdi? Nima deb o'ylaysiz, ertakchini kimga o'xshatish mumkin? (Shu ertakni yozgan ertakchiga.) Bu ertakni mashhur ertakchi H.K.Andersen yozgan.

I. Yozuvchi haqida umumiy ma'lumot. O'zining ajoyib ertaklari bilan jahonga tanilgan yozuvchi H.K.Andersen Daniyaning Odense shahrida 1805-yilda dunyoga keldi. Adib Spagels maktabida o'qigan. Kopengagen universitetini tugatgach, Frantsiya, Shveysariya, Italiya, Gretsiya, Ispaniya mamlakatlari bo'ylab sayohat qildi. Yozuvchi xalq og'zaki ijodi bilan shug'ullanib, bolalar uchun ko'plab ertaklar yozgan.

II. Anglash bosqichi. Metod. Izohli o'qish, mustaqil ish metodi.

Maqsadi. O'quvchilarni "Bolalar gurungi" ertagi bilan tanishtirish. Ularning ifodali o'qish, asar yuzasidan savollar tuzish ko'nikmalarini mustahkamlash.

Dastlab o'qituvchi hikoyaning 1- va 2-xatboshisini ifodali o'qib beradi. Tez, ravon, ifodali o'qiy oladigan 2-3 o'quvchi hikoyaning davomini o'qiydi.

2. Ichda o'qish. Topshiriq. Ma'nosi tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzish.

Badavlat-boy

dongdor- mashhur, e'tiborli

gimnaziya – Yevropada chuqur bilim beradigan maktab

chayqovchilik- bir joydan tovar olib, ustiga qo'yib boshqa joyda sotish

aslzoda- nasl-nasabli mashhur kishilar

dimog'dor- kekkaygan, boshqalarni pisand qilmaydigan

baqqol-shirinliklar sotuvchi kishi

oqsuyaklar- aslzodalar

3. Hikoyani qismlarga bo'lib o'qish

4. Reja tuzish.

Reja:

1. Savdogar bolalarga ziyofat berdi.

2. Bolalarning o'z otalari haqidagi bahsi.

3. Kambag'al bolaning orzusi.

4. Torvaldsenni kim tanimaydi?

4. Hikoya yuzasidan savollar tuzish. O'quvchilar taxminan shunday savollar tuzishadi: Savdogar kimlarga ziyofat berdi? Savdogar qaysi toifadagi kishilar bilan muomala qilar edi? Ziyofatda kim ajralib turar edi? Nima uchun savdogarning qizi ranjidi? Bolalar nima haqida bahs qilishdi? Bolalarning oldiga borishga kim uyaldi? Kambag'al bola munozarani eshitib nimalarni o'yladi? Yillar o'tgach shaharda qanday uy paydo bo'ldi? Xazinalar liq to'la uy kimniki edi? Kambag'al bola Torvaldsen kim bo'lib yetishdi?

Tuzilgan savollar doskada o'qituvchi tomonidan yozib boriladi.

Metod. Tarmoqlash metodi. Maqsad. O'qilgan asar yuzasidan o'quvchilarni tarbiyaviy xulosalar chiqarishga o'rgatish.

5. Qayta hikoyalash. O'quvchilar doskadagi savollar va reja yordamida hikoyani qayta gapirib berishadi.

III.Fikrlash bosqichi.

1. Tarmoqlash usulidan foydalanib, matnda keltirilgan so'zlar orqali hikoya qahramonlariga tavsif beriladi.

2. Og'zaki hikoya tuzish.

“Baxtli bolalik” mavzusida hikoya tuzish. Hikoya tuzish uchun o'qituvchi oldindan savollar tuzib keladi. Savollarni o'quvchilarga o'qib beradi. Namuna:

- Bizning ajdodalarimiz kim bo'lgan? Ajdodlarimiz qanday yumushlar bilan shug'ullanishgan? Ulardan bizga nimalar meros qolgan? Ota-onalarimiz qaysi sohalarda xizmat qilmoqdalar? Bizning bolaligimiz qanday o'tmoqda?

Quyidagicha hikoya tuziladi: Bizning ajdodlarimiz- Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Amir Temur buyuk kishi bo'lishgan. Ulardan bizga qimmatli asarlar, tiniq osmon, serquyosh o'lka meros qolgan. Bizning otalarimiz shifokor, o'qituvchi, duradgor, sotuvchi bo'lib xizmat qilishadi. Bizning bolaligimiz shod-xurram va quvnoq o'tmoqda.

7. O'quvchilarni rag'batlantirish.

8. Uyga vazifa. "Bolalar gurungi" asarini o'qib, o'rganish. "Otamning kasbi" mavzusida hikoya tuzish.

2.2. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari tahlili

Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqlol g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur. Intellektual salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashda esa yurtimiz har bir pedagoginingo'z kasbigabo'lgan ma'suliyati va bilimlari zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida o'qituvchilarning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga ta'sirini yuqori baholab shunday degan edi: "Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqida gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho

merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot – o'qituvchi murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz. Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda anashu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o'zimizda yaxshi tasavvur qilamiz”¹. Bugun ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida maqsad qo'yilgan. Bu o'quvchilarga ijodiy jihatdan o'z-o'zlarini namoyon qilishlari uchun imkoniyat yaratish va ularda ijobiy-shaxsiy sifatlarning shakllanishiga ko'maklashishdan iborat. Shu boisdan ham, bugungi kunda o'quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarini yaxshilash maqsadida ta'lim samaradorligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy ta'lim ravnaqini ta'lim tarbiya amaliyotida samarali va tejamli, yangi shakl, vositalarni qo'llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko'zlovchi pedagogik texnologiyalar ta'minlaydi.

Nima uchun bugungi kunda boshlang'ich sinflarda kitobga bo'lgan qiziqishida pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ildi? «Pedagogik texnologiya» nimani anglatadi?

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 176 b.


bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

“Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos- fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, "hunar fani " ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayonlar doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:





II.2. O'qitish texnologiyasi tuzilmasi.

Hozirgi davr ta'lim nazariyasida pedagogik texnologiya tushunchasiga keng urg'u berilmoqda. Pedagogik texnologiyaning mazmuni o'qituvchi tomonidan o'quvchiga aqliy, ruhiy, axloqiy jihatdan turli usulda ta'sir o'tkazishdan iboratdir

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan. Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, insoniyat hayotiga turli yangiliklarning kirib kelishi ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar qilinishini taqoza etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim sohasida erishilgan yutuqlarni saqlagan holda, bir xillikdan, bir qolipga tushib qolishdan saqlanmoq zarur. Ta'limning kishi xotirasini rivojlantirishga asoslangan turidan inson tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilar egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llash, ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil etishga qaratilgan turiga o'tishga harakat qilish shu kunning talabi. Shunga erishilsagina vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlod tarbiyasi oldiga qo'yilgan vazifa oqilona hal etilishi mumkin.

Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida o'qituvchi va O'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi. O'qitish usullari har ikkala faoliyatning:

a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) O'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatish yo'l-yo'riqlarini o'qish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

O'qish darsining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi o'qish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo'ladi. Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodi asosida o'rgatilgan bo'lsa, hozir izohli o'qish asosida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi sozlarga izoh berishga, ma'nosini tushuntirishga, o'qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilgan. Ularda ko'proq to'g'ri talaffuz, qiroat bilan o'qish, ifodali o'qish nazarda tutilgan.

Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodi asosida olib borilayotgan ekan, quyidagicha savol tug'iladi: izohli o'qish nima?

Izohli o'qishga XIX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushinskiy asos slogan, u o'qishda o'quvchilarni "ongli, tushunib, o'ylab o'qishga" o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli o'qish" deb nomlaydi.

Izohli o'qish metodiga K. D. Ushinskiy ishining davomchilari yangiliklar kiritdilar. Korf va Vaxterev izohli o'qish o'quvchilarga real bilim berish vositasi desa, Vodovozov va Bunakov o'quvchilarga o'qish jarayonida ham badiiy asar tahlili va asarning tarbiyaviy xarakteri bilan bo'g'liq holda beriladi, degan fikrni ilgari suradilar.

Professor Asqar Zunnunov o'qitishning mazmuni va usullari haqida fikr yuritib, o'quvchilarning oldin bilimlarni o'zlashtirishiga, so'ng yod olishlariga e'tibor berilishi ta'lim jarayonida izohli o'qish deb nomlanganini ta'kidlaydi.

Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, his qilishga, asarni to'liq idrok qilishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani anglashni ta'minlaydi.

Izohli o'qish quyidagi tamiyillarga to'liq amal qilingandagina muvofaqiyatli bo'ladi:

1. O'qishni hayot bilan bo'g'liq holda tashkil etish.
2. O'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayotiy tajribalariga, taassurotlarga asoslanish.

3. O'qishni ko'rgazmali tashkil qilish, tabiatga, tarixiy joylarga ekskursiyalar uyushtirish, hayvonot olami va o'simliklar dunyosini kuzatish, rasmlar, jadvallar, predmetlar bilan tanishtirish hamda matnni o'quvchining ifodali o'qishi tarzida olib borish.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o'qishga yaqin bo'lgan metodlardan biri ijodiy o'qishdir. Atoqli metodist olim N. I. Kudryashov ijodiy o'qish metodi tarkibiga quyidagi ish usullarini kiritadi:

a) o'qituvchilarning badiiy matnni sharhlab o'qishi hamda o'quvchilarning asarni to'g'ri va imkon qadar yanada chuqurroq, emotsional idrok etishlarini ta'minlash maqsadini ko'zda tutuvchi so'zi;

b) o'qilgan asardan o'quvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega bo'lgan va ularning diqqatini matnning muhim g'oyaviy va badiiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy muammoning qo'yilishi;

d) o'qituvchining asar o'qilganidan keyin o'quvchilarning asarni tadqiq etish jarayonida tug'ilgan badiiy kechinmalarini faollashtirish maqsadini ko'zda tutuvchi.

Ko'rinadiki, ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan to'g'ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A.Oripovning "Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g'oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog'liq milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sifda "O'tinchi yigit", 3-sifda O'tkir Hoshimovning "Xazonchinak", 4-sinfda S.Anorboyevning "Qo'rqqoq" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yoida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan song ifodali o'qishga o'tiladi. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi. Ifodali o'qishning muvoffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishlari bilan bog'liq.

Ifodali o'qish intonatsiya – ohang yordamida asarning g'oyasi va jozibasini to'g'ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o'qish adabiyotni aniq va ko'rgazmali o'qitishning dastlabki va asosiy shaklidir"⁶, deb ta'kidlaydi metodist olim M.A.Ribnikova. Demak, "Ifodali o'qishning asosiy vazifasi asarning mazmunini va emotsionalligini intonatsiya orqali o'quvchilarga

ko'rgazmali qilib ko'rsatishdir. Ifodali o'qishning asosiy tamoyili o'qiladigan asar go'yasi va badiiy qimmatini chuqur tushunishdir"⁷

Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir.

Nasriy asarlarni o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, ifodali o'qish oldiga qo'yilgan 4-sinfda X. To'xtaboyevning "Xatosini tushungan bola" hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bola kim ekanligi, uning xatosi nimalardan iborat bo'lganligi, maqtanchoqlikning yomon illat ekanligi to'g'risida tushuncha beriladi.

Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M. Abdurashidxonovning "Ha kim ekanin it", kabi she'riy hikoyalarni o'qishga ham xosdir.

Matnni ifodali o'qishga tayyorlanish

1. Matnni diqqat bilan o'qing.

Unda nima haqida aytilganini tushunishga harakat qiling.

2. Mavzuni, asosiy g'oyani, aytilish tonlarini aniqlang.

3. Matnni nima maqsadda o'qishingiz va tinglovchilarni nimaga ishintirishingiz haqida o'ylang.

4. Gapdagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlar ma'nosini belgilang.

5. Qayerda pauzalar bo'lishini belgilang.

6. Og'zaki, ifodali nutqning yana qanday usullaridan foydalanishingizni o'ylang, masalan, nutq tempi, ovoz balandligi yoki pastligi.

Xotira, nutq va tafakkurning rivojlanishiga 5moduldagi ishlar xizmat qiladi. Bunday ishlarni tartibga so'sh uchun quyidagi eslatmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda soz san'atining barcha komponentlari ishtirok etadi. U o'quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda

aktyorlarning audio-video tasmlarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Badiiy o'qishning muvoffaqiyatini ta'minlaydigan omillardan biri tanlab o'qishdir. Masalan, 3-sinfda X.To'xtaboyevning "Hassa" hikoyasi bilan tanishish jarayonida Qobil boboning savollariga Shavkatning javoblari yoki S. Anorboyevning "Bahs" hikoyasidagi epizodi yuzasidan o'qituvchi topshirig'iga ko'ra mazkur o'rinlarni tanlab qayta o'qilishi natijasiga ushbu asarlarning badiiy-estetik qimmatini chuqurroq o'zlashtirishga erishiladi.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llanilarigan usuldir.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya sullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Blis texnologiyasi", "FSMU texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qo'llash o'qituvchi o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi lozim.

Shu o'rinda biz bir soatlik dars misolida fikrimizni asoslashga e'tiborni qaratdik.

Mavzu: Sovg'a

O'quv materiali: Bir xurmacha shavla. Aka-uka Grimmlar.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni aka-uka Grimmlar ijodi, "Bir xurmacha shavla" ertagi bilan tanishtirish. Matnni qismlarga bo'lib, reja tuzish, qayta hikoyalash, savol-topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmasini takomillashtirish.

2.O'quvchilarni sahiylik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

3. O'yin orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish.

Darsning turi. Yangi bilim beruvchi, ertak o'qish darsi.

Darsning metodi. Qadamba-qadam, suhbat, mustaqil ish metodi.

Darsning jihozi. Darslik, aka-uka Grimmlar asarlari ko'rgazmasi, asar mazmuniga ishlangan rasm.

Darsning borishi.

Ushbu dars "Bolalar gurungi" asari kabi o'rganiladi.

O'qituvchi hikoyasi. Aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar Germaniyada tug'ilishgan. Grimmlar yozgan ertaklarni ertak aytuvchilardan, oddiy dehqonlardan eshitganlar. Ular "Tilla g'oz", "Yalqov Geyts", "Gansning baxti", "Botir tikuvchi", "Bremen musiqachilari" kabi ertaklarni yozishgan. Ertakchilar yozgan "Zolushka", "Qorqiz" ertaklari butun dunyoga mashhur bo'lgan. Biz ularning "Bir xurmacha shavla" ertagini o'qib o'rganamiz.

4. "Domino" o'yini. O'yin yangi mavzuni mustahkamlaydigan mavzu yuzasidan xulosa chiqariladigan fikrlash bosqichida o'tkaziladi.

Kartochkalar qalam bilan 2 ga bo'linadi. Birinchi qismiga javob yoziladi. Savolga kartochkalardan javob topiladi. Ikkinchi qismdagi savolga yana javob izlanadi. Ikkinchi qismidagi savolga yana javob izlanadi. Shu tariqa o'yin davom ettiriladi. Masalan:

"Bolalar gurungi" ertagi muallifi kim?

H.K.Andersen.

Rassom bo'lgan kambag'al bolaning ismi nima?

Torvaldsen.

Aka-uka Grimmlar yozgan ertakning nomini toping.

"Zolushka".

Kampirning qizga bergan sovg'asi va hokazo.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ertaksevar, o'yinqaroq bo'lganliklari uchun ham "Reklama" metodi darsda yaxshi samara beradi.

"Reklama" metodining afzalligi:

- O'quvchilar nutqi ravonlashadi;
- Mustaqil,erkin fikrlashga o'rgatadi;
- O'quvchida darsga qiziqishni oshiradi;
- O'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi;

- Og'zaki nutqi shakllanadi;
- So'z boyligi oshadi;
- Bilishga qiziqishini badiiy asarga hurmatini oshiradi;
- O'quvchilarni tez fikrlashga o'rgatadi;
- O'quvchida diqqatni jamlash ko'nikmasini hosil qiladi;
- Savollarga to'liq javob bera olishga o'quvchini o'rgatadi.

Quyidagi jadvalda “Reklama” metodi va boshqa interfaol metodlarni qo'llashning samaradorlik darajalarini ko'rsatamiz.

Interfaol o'qitish metodlari	Nazariy bilimlarni	Faktik bilimlarni	Kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqini	Tafakkurni	Nutqini	Bilishga qiziqishni	Tafakkur mustaqilligini
Aqliy hujum	Q	Q	Q	Q	Q		Q
BBB	Q	Q	Q	Q	Q	Q!	Q
Klaster	Q	Q	Q	Q!	-	Q	Q
Kichik guruhlarda ishlash	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
Pinbord	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q
“Nima uchun?”	Q	Q	-	Q	-	Q	Q
REKLAMA	Q!	Q	Q!	Q!	Q!	Q!	Q!

Izoh: Q! – masalani birmuncha muvaffaqiyatli yechadi; Q - masalani asosan yechadi; –masalani yecha olmaydi.

Bu metod orqali ham darsni mazmunli tashkil etish, ham o'quvchilar dunyoqarashini yuksaltirish, ularda badiiy obrazni rollarda kirishni shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, ushbu bobimiz orqali bolang'ich sinflarning 4-sinf o'qish darslaridagi har xil janrdagi asarlar qahramonlariga yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda tavsif berishga o'rgatish yaxshi samara beradi.

TAJRIBA-SINOV ISHI

Ushbu “4-sinf o’qish darslarida o’quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o’rgatish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimiz orqali bugungi kunda ta’lim jarayonidagi muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo’llari va ta’limga oid innovatsion texnologiyalar, ularning ta’lim tizimidagi o’rni haqida baholi qudrat ma’lumot berishga, ularning muammolarini hal etishga urinib ko’rdik. Ta’limda uchragan va uchrashi mumkin bo’lgan pedagogik muammolarni o’z qarashimiz bilan hal etishga urindik, ularning yangi mukammal yo’llarini topishga harakat qildik. Biz o’z fikrimizni isbotlash uchun tajriba-sinov ishini olib bordik. Bu tajriba-sinov ishimiz, asosan, Namangan viloyati Norin tumanidagi 20-maktabda olib borildi. Dastlab biz o’ylagan muammolarni kuzatdik, ularni kamchilik deb hisoblagan, o’ylaganlarimizga ishonch hosil qilish uchun Namangan viloyati Norin tumanigi 20-maktabning 4-“A” va 4-“V” sinflarini oldik. Mavzu maktab pedagogik Kengashida ko’rib chiqildi va ma’qullandi. Tajriba uchun mas’ul o’qituvchilar ham biriktirildi. Rejalar ishlab chiqildi. Biz ishni dastlab mavzu haqida o’quvchilarga tushuncha berishdan boshladik. Ularning tushunchalari boyitildi. Bu haqda savol-javoblar o’tkazildi. Ayrim o’qituvchilarning bu haqdagi fikr-mulohazalari ham atroflicha tahlil qilib o’tildi. Maktabda o’qish darslarining holatlari chuqur tahlil qilib o’tildi. Ayrim darslar kuzatildi va bu haqda fikrlar bildirildi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini oilada kitobga va uni o’qishga qiziqishlarini uyg’otish masalasi keng tushuntirildi. Yig’ilishlar o’tkazildi. Yig’ilishda mavzuga bog’lab savol-javoblar o’tkazildi.

Tajriba –sinov ishlarini biz uch bosqichda olib bordik.

“4-sinf o’qish darslarida o’quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o’rgatish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, Namangan viloyati Norin tumanidagi 20-maktabda 2019-yilning 11-fevralidan 27-apreligacha qadar 3 bosqichda olib bordik.

I bosqich. Kuzatuv bosqichi.

Maqsad va vazifalar: O`qituvchi va o`quvchilar jamoasi bilan tanishib, 4-sinf o`qish darslarini kuzatish, ta`lim jarayonida bitiruv malakavi ishi mavzusiga alohida e`tiborni qaratish.

Men tajriba ishimning kuzatuv bosqichida 4-“A” va 4-“V” sinflarni kuzatdim. 4“A” sinf rahbari Abdullayeva Shoiraxon bo`lib, bu sinfda 15 ta o`g`il bola, 16 ta qiz bola bo`lib, jami 31 ta o`quvchi bor ekan.


4- “V” sinf rahbari Abdullayeva Shoiraxon bo`lib, bu sinfda 18 ta qiz bola, 19 ta o`g`il bola bo`lib, jami 37 ta o`quvchi o`qir ekan.

Men tajriba-sinov ishi olib boradigan sinf o`quvchilari haqida to`liq ma`lumot oldim. Ular bilan tanishib olgach, o`qish darslarini kuzatdim. Natijani bilish uchun boshlang`ich sinf o`quvchilarini oilada kitobga va uni o`qishga qiziqishlarini uyg`otish yuzasidan savol-javoblar o`tkazdim.


Bular orqali o`quvchilarning bilim darajasini aniqlab oldim. Buning uchun yuqorida aytib o`tilgan topshiriqlarni amalga oshirdim. 4-«A» sinfda 35 ta, 4-«V» sinfda 37 ta o`quvchi qatnashdi va natija quyidagicha baholandi:

TAJRIBADAN OLDINGI NATIJALAR

4-“A” sinf



4-“V” sinf



Sinf	O`quvchilar	Qatnashdi
4- “B”	35	35

4-“V”	37	37

O`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi tarzda boholandilar:

“5” ball		“4” ball		“3” ball		“2” ball	
nafar	%	nafar	%	nafar	%	nafar	%
8	23	10	29	12	34	5	14
Ta	%	ta	%	ta	%	ta	%
7	19	10	27	13	35	7	19

35-100 %

37-100%

18-X

17-X

35X=18 100

37X=17 100

X= 18 100:35

X=17 100:37

X=51 %

X=46 %

Nazorat sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichni ko`rsatgani aniqlandi:

“5” ball 8 ta;

“4” ball 10 ta;

“3” ball 12 ta;

“2” ball 5 ta

Tajriba sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish natijalari quyidagi ko`rsatkichlarni ko`rsatgani aniqlandi:

“5” ball 7 ta;

“4” ball 10 ta;

“3” ball 13 ta;

“2” ball 7 ta.

Bu ma`lumotlardan ko`rinadiki, mavzu haqida o`quvchilar umumiy tushunchaga ega ekanlar.

Bu ma`lumotlardan ko`rinadiki, mavzu haqida o`quvchilar umumiy tushunchaga ega ekanlar.

Shunday qilib, ushbu natijalardan har ikkala sinfning, ya'ni 4 –“B” va 4-“D” sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otish ko'rsatkichlarini, bilimlarini bilib oldik. Ushbu natijalarni olgandan so'ng sinfni yanada keng bilib oldik.

Bu ko'rsatkichni aniqlashda quyidagi mezonlarga tayandik.

№	O'quvchilar bilimni aniqlash mezonlari
1	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otish qay darajada ekanligi
2	“Kim ko'p kitob o'qigan?” didaktik o'yininin o'tkazish
3	O'quvchilarning o'qigan kitoblaridagi har xil janrdagi asarlarni bir-biri bilan bog'lay olishlari
4	O'quvchilarning o'qigan kitoblaridagi har xil janrdagi asarlarni tahlil qila olishlari
5	O'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishda nimalarga e'tibor berishadi?

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otishni aniqlash uchun asosan ular bilan savol-javoblar o'tkazish mumkin:

1. Kitob va uning yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Siz qanday kitoblarni o'qigansiz yoki tanishgansiz?
3. O'qigan har bir kitobingizni mavzu jihatdan bir-biridan faqrlay olasizmi?
4. Ushbu siz bolalar uchun yaratgan kitoblarda asosan qanday g'oyalar ilgari surilgan?
5. Siz ijodkor bo'lganingizda qanday mavzular xususida to'xtalgan bo'lar edingiz?

Didaktik o'yinlar.

A) “Kim ko'p kitob o'qigan?” (darslikdan tashqari)

1-variant. Kim ko'p ertak nomini aytadi?

2-variant. Kim ko'p ertak qahramonlari nomini aytadi?

3-variant: Kim ko'p hikoyalar nomini aytadi?

Natijani hisoblash uchun o'qituvchi o'quvchilardan birini yordamga chaqirishi mumkin. Natija hisoblanib, g'oliblar taqdirlanadi.

B) "Tez va soz" o'yini.

Bunda asosiy e'tibor kitob ta'mirlashga qaratiladi. 3 ta bo'sh partalardan har birining ustiga 1 tadan eskiroq kitob va ularni ta'mirlash uchun yelim, skotch, qaychi qo'yilib, uch o'quvchi taklif etiladi. Ularga vaqt belgilanadi. O'quvchilar esa olqishlab turishadi. G'olib o'quvchilar rag'batlantiriladi. (Bu o'yinni qatorlararo ham o'tkazish mumkin.)

Kitob haqida quyidagicha suhbat o'tkaziladi:

1. Kitob qayerda turadi? (Kitob javonida)

2. Kitob orqali biz nimalarni egallaymiz? (Bilimlarni egallaymiz.)

3. Kitobni nima uchun asrashadi? (Bolalar o'qishi uchun. Biz ham darsliklarimizni asrashimiz kerak. Kitoblar qimmat. Undan bizning ukalarimiz, singillarmiz ham foydalanishadi. Kitobga ko'p kishilarning mehnati singgan.)

Boshqotirmani yechish:

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Javob Kitob bilim manbayi.

10. O'quvchilar bilimini nazorat qilish.

"O'qish kitobi"ga oid qatorni toping.

A) Chinor va maysalar;

B) 2Q2q?

D) Tovushlarni talaffuz qiling;

Kitob qayerda turadi?

A) Javonda;

B) Stolda;

D) Xontaxtada;

Kitobni nima qilamiz?

A) O'qiymiz;

B) O'ynaymiz.

8. Uyga vazifa: she'ni yod, ifodali aytishga tayyorlanib kelish.

9. O'quvchilarning reytingini e'lon qilish.

Bolalarga bag'ishlangan asarlarda voqealarning tez-tez o'zgarib turishi, tasvirning soddaligi jo'nlik bo'lmay, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan sifatlaridir. Aslida bolalar adabiyoti doirasidagi asarlarga kattalar adabiyotidagi kabi, balki undan ham salmoqliroq talablar qo'yiladi.

Shunday qilib, ushbu natijalardan har ikkala sinfning kitob va uni o'qishga bo'lgan qiziqishlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini, bilimlarini bilib oldik. Ushbu natijalarni olgandan so'ng sinfni yanada keng bilib oldik.

So'ng II bosqichga o'tdik. Unda men asosan, o'qish darslarida o'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish bo'yicha bilim va malakalarini kengaytirishga harakat qildim.

II bosqich rivojlantiruvchi bosqich.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning o'qish darslarida badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish, darslikda berilgan har xil janrdagi asarlar asosida erkin va mustaqil fikrlashga yo'naltirish, bolalarda bu mavzularga bo'lgan qiziqishini oshirish.

Biz tajriba ishimizda bir necha dars ishlanmalaridan foydalandik. Shu dars ishlanmalaridan foydalanib darsni o'tib berdik. So'ng bu darslarni kuzatdik va naitijani oldik: O'quvchilardan darsga tayyorgarlik darajalari so'raldi.

Shunday qilib, biz mavzu haqida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun reja tuzib chiqildi. Shu reja asosida mukammal ish olib borishga harakat qildik. Avval darslarni kuzatdik. Qilinadigan ishlarni belgiladik. Ayrimlaridan voz kehdik. O'quvchilarni zeriktiradigan, o'rinlar olib tashlandi. Darslar asosan, savol-javob, bahs-munozara, kitob va uni o'qishga bo'lgan

qiziqishlarini uyg'otishda asosan nimalaga e'tibor kerak bo'lsa, shular asosida o'tkazila boshlandi.

Bu kabi ishlar kelajakda o'tkaziladigan darslarni qanday o'tkazish kerakligini belgilab berdi. Shu sababli, biz ishimizni asosan, o'quvchilarning takliflaridan kelib chiqib belgiladik.

Avval biz o'quvchilarni darslik bilan yaqindan tanishtirib oldik. boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirdik. O'quvchilarning fikrlarini ham bilib oldik. Ularni o'rgandik, saraladik. Shular asosida ularni kitob va uni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish darslarini uyushtirdik. Bir nechta namunaviy darslarni tashkil etdik. Mavzuga bog'lab darslarni o'tib berdik. Tashkil qilingan darslar o'quvchilarni zeriktirishga yo'l qo'ymadi. Ularda mustaqil va erkin fikr yuritishni ta'minladi. Bugungi ta'limning asosiy shartlaridan biri ham o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, kitob va uni o'qishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishdir. Dunyo bo'yicha ta'lim jarayoniga e'tibor juda kuchayib ketmoqda. Biz o'qituvchilar ularni to'g'ri tushungan holda darslarda o'quvchi mustaqilligini ta'minlash, ularda mustaqil ishlash, badiiy asar ustida ishlash ko'nikmalarini o'stirishga doimo diqqatni qaratmog'imiz kerak bo'ladi.

Tajriba sinflarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otish bo'yicha ish olib borildi. Musobaqa darslari o'tkazildi. Darslarda o'quvchilar rag'batlantirildi. Biz darslarda, asosan, o'quvchilarni rag'batlantirishga e'tiborni qaratdik. Bulardan tashqari uyga berilgan vazifalarga ham e'tibor berdik. Chunki bu uyga berilgan vazifalarni bajarishlari orqali o'quvchilarning mavzuni qay tarzda tushunganliklarini ochiq ko'rish mumkin. Shu sababli qilingan nazorat ishlarida tajriba sinflarida natija yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Biz bugun boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitobga va uni o'qishga qiziqishlarini uyg'otish masalasiga keng e'tiborni qaratishimiz kerak. Chunki olamni go'zallik ushlab turishi xususida o'quvchilarga to'liq tushuncha berish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

O'qish kitobida har xil janrdagi asarlar berilgan bo'lib, ularni o'rganishda o'qituvchi badiiylikka ko'proq e'tibor berishi, ularni dars jarayoniga singdirib yuborish kerak. Har bir asarda katta maqsad yotadi. Lekin o'sha maqsadni o'qituvchi o'quvchiga yetkazishi kerak. Xo'sh? Nima orqali tushuntiriladi? Avval nimalarga e'tiborni qaratish kerak? Bu savollarga javob topish uchun biz ishni dastlab badiiy asarlardagi badiiy tasvir vositalariga e'tibor berishimiz, boshlang'ich sinflarda badiiy tushuncha haqida kengroq ma'lumotlar berishimiz lozim bo'ladi.

Dars mashg'ulotlarida o'qish uchun berilgan matnlarni tahlil qilar ekan, o'qituvchi avval undagi tabiat manzaralariga, kishilar xarakteriga bolalarning e'tiborini qaratish lozim bo'ladi.

Xullas, ishimizning 3-bosqichida buni aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.

III bosqich. Solishtirma tahlil.

Maqsad va vazifalar: Kuzatuv va rivojlantiruvchi bosqichlaridagi natijalarni solishtirma-analiz qilish, ularni jadvallarda aks ettirish.



Baholash mezonlari	Nazorat sinfi (39)		Tajriba sinfi (37)	
	Tajribagacha	Tajribadan keyingi	Tajribagacha	Tajribadan keyingi
Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qigan kitoblari yuzasidan mustaqil fikrlay oladi	8 (23%)	8 (23%)	8(22%)	8(22%)
Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qigan kitoblaridagi asarlarini bir-biriga bog'lay oladi	8(23%)	8(23%)	8(22%)	8(22%)
Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qigan	4(11%)	4(11%)	5(13%)	8(22%)

kitoblaridagi, ayniqsa, oqish darslarida o'tilgan mavzularni eslay oladi				
O'qigan kitoblaridagi har bir asarni tahlil qila oladi	4(11)	4(11)	5(13)	8(22%)

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJALAR

4-“ A” sinf

4-“ V” sinf



O`quvchilarning soni - 35			O`quvchilarning soni-37		
Nazorat sinfi – 4 –“B”			Tajriba sinfi -4-“V”		
Ballar	Natija	%	Ballar	Natija	%
“5” ball	8	23	“5” ball	9	24
“4” ball	11	31	“4” ball	10	27
“3” ball	14	40	“3” ball	16	43
“2” ball	2	6	“2” ball	2	6

35-100 %

37-100%

19-X

19-X

35X=19 100

37X=19 100

X= 19 100:35

X=19 100:37

X=54 %

X=51 %

Tajriba sinfida o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

“5” ball 9 ta;

“4” ball 10 ta;

“3” ball 16 ta;

“2” ball 2 ta;

Nazorat sinfida esa o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

“5” ball 8 ta;

“4” ball 11 ta;

“3” ball 14 ta.

“2” ball 2 ta;

Tajriba natijalarini tahlil qiladigan bo`lsak, nazorat sinfida “5” va “4”ballarning salmog`i 54% ni tashkil etadi. Tajriba sinfida esa yaxshi va a`lo baholarning salmog`i 51 % ni tashkil etdi. Tajriba-sinov ishining oldingi bosqichi bilan so`nggi bosqichini solishtirganda nazorat sinfida dastlab ushbu bo`linga kirgan har xil janrdagi asarlarni o`rganish 51 % ni tashkil qilgan bo`lsa, oxirida esa 54 % ni tashkil qildi. Demak, 3 % ga farq qilgan. Tajriba sinfi bo`lmish 4-“V” sinfida esa oldingi bosqichda o`zlashtirish natijasi 46 % ni tashkil qilgan bo`lsa, tajribasinov ishimizning so`nggi bosqichida bu ko`rsatkich 51 % ni tashkil qildi. Demak, 5 % ga ko`zlangan natijaga erisha oldik.

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o`quvchilarda bizning ishimizga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni shu mavzu yuzasidan erkin va mustaqil fikrlashga, 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o`rgatish bo`yicha bilim darajalari, malakalarini o`stirishga yo`naltirildi.

Umuman olganda, yangi pedagogik texnologiyadan foydalanib 4-sinf o`qish darslarida o`quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o`rgatish bo`yicha olib borilgan darslarda ular tanishish imkoniyatiga ega bo`lgan mavzular xususida keng va atroflicha bilim olishlariga, tushuncha hosil qilishlariga ham erishiladi. Shu bilan birga, ular mazkur matnlarni quruq o`qish

bilangina cheklanmay, balki ularni ongli ravishda tahlil qilib o`qish va o`zlashtirishga o`rganadilar ham o`zlari uchun eng kerakligi insoniylik, insonparvarlik ruhida chiniqishni oladilar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi dunyo miqiyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi ehtiyojidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va oilada ota-onalar ham bolani kitobga qiziqishini uyg'otishda texnika va texnologiyani chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratilish darajasida bilimli va mahoratli bo'lishi juda muhim. Buning uchun oilada sermazmun va qiziqarli kitoblar va hikoyalar o'qishga bolani qiziqtirish va maktabda ham o'qituvchilar darsni tashkil etish jarayonida barcha o'quvchilarga tushunarli, oson, qiziq bo'lgan usullarni tanlashi va qo'llay olishi, ko'rgazmali qurollardan foydalanishi, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbiq qilishi, ta'lim oluvchilarni ijodiy, mustaqil ishlashga undashi, pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

O'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni shakllantirish, zamonaviy ko'rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari boshqarishga moyil, qiziquvchan, ta'sirchan bo'lganliklari uchun ham oilada ota-onadan va o'qituvchidan o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lgan, darsni oson o'zlashtirishlarini, bilimlarni mustahkam o'rganishni kafolatlaydigan metodlarni tanlashi va foydalanishida birga hamkorlikda harakat qilishlari talab etiladi.

Darslarni samarali va sifatli tashkil etish uchun pedagogning tashkiliy hamda uslubiy jihatdan tayyorgarligi va ta'lim olish jarayonini tashkil etishni ta'minlovchi o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish talab etiladi. Taminot

bazasida o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyati bo'lishi muhim.

Bitiruv malakaviy ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarini oilada kitob o'qitishga qiziqishlarini uyg'otish va o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda qo'yiladigan didaktik talablar hamda asosiy e'tiborni qaratish kerak bo'lgan jihatlar yoritib berdim, boshlang'ich sinflarda "Reklama" metodidan foydalanildi hamda shu asosda tajriba-sinov ishlari olib bordim.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini rivojlantirishda faol ta'lim usullarini qo'llash imkoniyatlari o'rganib, mohiyati yoritib berdim.

Olib borgan ishimiz natijasi va xulosalarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va oilada muntazam ravishda kitobga va uni o'qishga qiziqtirishga erishish.
2. Oilada kitobni va uni o'qishga va obolaning erkin tafakkurini shakllantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga erishish.
3. Har bir o'qituvchi o'quvchining diqqati, e'tiborini jalb qilish uchun o'qish darslarida texnologik yondoshishga o'rgatish.
4. O'quvchilarni o'qish darslarida berilgan har xil janrdagi asarlarni o'qish jarayonida asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish
5. O'qituvchi mahoratini oshirish uchun tajribali o'qituvchining ishlarini doimiy kuzatib borishlarigi erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947 -sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. -46 b.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Qarori // Xalq so'zi, 2017- yil.-21-aprel.

4.Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- Toshkent: O'zbekiston, 2016.-56 b.

5.Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent :O'zbekiston, 2016.-488 b.

6.Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.-488 b.

7. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.- Toshkent: O'zbekiston, 2017.-104 b.

8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.- 176 b.

9. Karimov I.A. Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: Ma'naviyat, 2006.-112 b.

10.Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida.- Toshkent: O'zbekiston, 1996. T.4.- B.88.

11. Karimov I.A. Milliy mafkura haqida. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – 96 b.

12. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi (to'plam). – Toshkent, 2000.-64 b.

14. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 128 b.

15. Abdullayeva Q. va boshqalar. O'qish kitobi: 2-sinf uchun darslik.- Toshkent: O'qituvchi, 2010.- 192 b.
16. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2003.- 176 b.
17. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006.
18. Hayitova S. O'quvchilarga darslik bilan mustaqil ishlashni o'rgatish G'G' Boshlang'ich ta'lim, 2018, № 11.- B.28-29.
19. Jo'ra Sulton. Qaldirg'och.- T.: Adabiyot va san'at, 2001.- B.162-164.
20. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.- 198 b.
21. Matchonov S. va boshqalar. O'qish kitobi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- T.: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2015. – 240 b.
22. Matchonov S., G'ulomova X., Dolimov Z. O'qish kitobi: 4-sinfda o'qish darslari: O'qituvchi kitobi.- Toshkent: Yagiyul poligraf servise, 2007.- 192 b.
23. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O'qish kitobi 4-sinf: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- Toshkent.: Yangiyo'l poligraf servise, 2017. - 216 b.
24. Matjon Safo. Kitob o'qishni bilasizmi?-Toshkent: O'qituvchi, 2001.-144 b
25. Namozova Z. Xitoy ta'limi: O'ziga xos yondashuv // Boshlang'ich ta'lim, 2018. -№5. – B. 30-31.
26. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.- T.: Noshir, 2009.- 352 b.
27. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
28. Zunnunov A., Esonov J. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi: Adabiyot o'qituvchilari uchun qo'llanma.- T.: O'qituvchi, 2000.-200 b.

29. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 80 b.

30. Nam DU. uz.

31. WWW. referat. uz.

32. www. pedagog. uz

33. www. Ziyonet. uz

34. www. edu. uz

MUNDARIJA:

Kirish.....	3
1- bob. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning nazariy asoslari.....	8
1.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish haqida umumiy ma'lumot.....	8
1.2. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatishning ahamiyati.....	18
2- bob. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish usullari.....	36
2.1. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari va ularni tashkil etish.....	36
2.2. 4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarni asar qahramonlariga tavsif berishga o'rgatish darslari tahlili.....	53
2.3. Tajriba-sinov ishi va natijalarining tahlili.....	64
Xulosa.....	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	76